



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

TARADDUD



NAVRO'ZNI ULUG'LASH INSONNI ULUG'LASHDIR!

Xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati va ezgu qadriyatlarini o'zida yaqqol mujassam etgan, ona tabiat va odamlar ruhiyatida yuz beradigan yasharish, yangilanish va yuksalishlarni asrlar davomida to'la namoyon qilib kelayotgan Navro'z eng ardoqli milliy bayramlarimizdan biri hisoblanadi.

Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida Quyosh yili hisobidagi dastlabki oy to'g'risida so'zlab: "Bu o'ning birinchi kuni Navro'zdir", deydi. Navro'z nafaqat sharqona yangi yilning boshlanishi, balki inson qadrini ulug'lash, jamiyatda o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunda bu ulug' ayyomning ma'no-mazmunini yanada chuqurlashtirib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ezgu qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 6-martdagi "2026-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori Navro'zning milliy qadriyatlarimizdagi o'rnini yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim tashabbusdir. Qarorga binoan, bayramning asosiy g'oyasi "Navro'zni ulug'lash insonni ulug'lashdir!" deb belgilangan bejiz emas. Bu g'oya jamiyatimizda inson qadrini yuksaltirish,

fuqarolarning farovon hayotini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bilan mushtarak.

Qarorda bayram tadbirlarini tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni ifoda etuvchi mazmunda tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa ona zaminga mehr va ehtiromni kuchaytirish, atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslarga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishdek muhim g'oyalarni keng targ'ib qilish imkonini beradi.

Bu yil Navro'zning muborak Ramazon hayati bilan hamohang tarzda nishonlanishi bayramning ma'no-mazmunini chuqurlashtirib, ma'naviy qimmatini yanada oshiradi.

Navro'z kunlari xalqimizning betakror mehr-oqibati va bag'rikengligi tufayli yordamga muhtoj insonlar, keksalar, nogironlar va kam ta'minlangan oilalar holidan xabar olish, ularga beg'araz ko'mak berish, jamiyatda o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni kuchaytirishga qaratilgan savob ishlar, xayriya tadbirlari va ommaviy hasharlarni amalga oshirish azaldan an'anaga aylangan. Ko'chat ekish aksiyalari, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari shahar va qishloqlarimizga o'zgacha fayz bag'ishlaydi.

Bayram tadbirlarida millatlararo do'stlik va totuvlik muhitini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar muhim o'rin tutadi. Yurtimizda yashayotgan turli millat

vakillarining milliy urf-odat va an'analari, boy madaniy merosining keng namoyish etilishi jamiyatimizda o'zaro hamjihatlikni yuksaltiradi. Bunday tadbirlar yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga beqiyos ta'sir ko'rsatadi.

Navro'z YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. BMT Bosh Assambleyasining 2010-yil 19-fevraldagi 64-sessiyasida 21-martni "Xalqaro Navro'z kuni" sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qilingan. Shu tariqa, Navro'z bugun bir millat yoki madaniyatning bayrami emas, butun insoniyat merosining ajralmas qismiga aylangan.


Navro'z yaxshi qo'shnichilik, hamkorlik, madaniyatlararo muloqotni rag'batlantirishga xizmat qiladi, o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Qadimga Navro'z bayrami kuni urushlar to'xtatilgan, gina-kudratlar, arazlar unutilgan. Bu qutlug' ayyom asrlar mobaynida ezgulik timsoli, insonlar qalbidagi yorug' orzu-umidlar kurtak ochadigan fasl bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Davlatimiz rahbarining Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni munosib nishonlashga oid qarori xalqimizning bunyodkorlik va yaratuvchanlik qudratini ulug'laydigan, uning turmush tarzi, ma'naviyati, milliy ruhini ifoda etadigan ezgu ayyom shukuhini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Jamoliddin BADALOV

KUZATUV

UMMONDAN BAHRA



Qoraqalpoqning mumtoz shoiri Berdaq: "Navoiydan savod ochdim", deb yozadi. Yana bir ulug' ijodkor Ajiniyoz esa hazrat Alisher Navoiy murojaat qilgan ko'plab bahrlarda g'azallar bitgan. Turkiy tillar qatorida qoraqalpoq tili va adabiyoti ham Alisher Navoiy ummonidan bahramand bo'lgan va bo'lib kelmoqda. Bunda shoir asarlarining tarjimai alohida ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan qoraqalpoq matbuotida bir qancha asarlar tarjimai dunyo yuzini ko'rgan. Xususan, 1938-yili "Qizil Qoraqalpog'iston" gazetasi bir necha sonida "Farhod va Shirin" dostoni M.Dariboyev, "Layli va Majnun" dostoni A.Shamuratov tarjimai bilan nashr etilgan.

(Davomi 2-sahifada.)

"JADID" MEHMONI

O'ZBEKISTON – TABARRUK ZAMIN

TURKSOY Bosh kotibi, Qirg'iziston xalq yozuvchisi
Sulton RAYEV bilan suhbat



– Sulton og'a, o'zbek ziyolilari va kitobxonlari Sizni taniqli adib va dramaturg sifatida yaxshi biladi, qadrlaydi, milliy matbuotimizdagi har bir chiqishingizni iliq qarshi oladi. Suhbatimiz Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga to'g'ri keldi. Bilamiz, Siz o'zbekchada ham ravon so'zlaysiz, demak, hazrat asarlarini aslyatda o'qib, bahramand bo'lgansiz. Shunday emasmi?

(Davomi 2-sahifada.)

VATAN MANZUMASI

To'ra SULAYMON

ILTIJO

Bahor kelsa boshlanur bog'da bulbul xonishi,
Sa'va, qumri nag'masi, suralay tovlanishi,
Qirlarda lola sayli, qishlovlarda yil boshi.
To'xtagay tabiatdan haqqushlar zorlanishi,
Bahor, ketma mening bog'imdan.

Qilmishi qing'ir zotga davr qayda, davron qayda?
Vatangado kimsaga beminna makon qayda?
Yolg'iz otga olamda nom qayda, nishon qayda?
Bahor, sensiz sahro-yu tog'-u toshga jon qayda?
Ketma, Bahor, mening bog'imdan.

O'lmaslikka ishora – o'langa oshiqligim,
Saodatga ishora – zamonga oshiqligim.
Teranlikka ishora – ummonga oshiqligim,
Go'zallikka ishora – bo'stonga oshiqligim.
Bahor, ketma mening bog'imdan.

Bu kun qay bir yerda qish, qayda xazonrezgilik,
Qaylarda yoz, qayda kuz, qayda jondan bezgilik,
Ko'klamning har nafasi – umrga arziguulik,
Bog'siz, bog'bonsiz yerda ne ham qilsin ezgulik...
Ketma, Bahor, mening bog'imdan.

Giyoh bilan qoplanmish ko'hna qabr boshlari,
Maysadagi shudringlar – kimlarning ko'z yoshlari?
Bu yerda yotar otam ham uzangidoshlari,
Har bahor eslar uni qavm-u qarindoshlari,
Bahor, ketma mening bog'imdan.

Yoz bo'yi qorga zorman, qishda bahorga zorman,
Chamanda gul bo'yiga intiqman, intizorman.
Kuz kelmay xazon bo'lgan sevgi, guldan bezorman,
Bahorsiz ham diyorsiz el ichra benazarman,
Bahor, ketma mening bog'imdan.



SARHISOB

"EL DESA NAVOIYNI..."



JAHON MIQYOSIDAGI
MA'NAVYIY BAYRAM

Har millatning jahon tamadduniga qo'shgan hissasi, unga mansub daholarning xizmatlari, boy merosi, ilmiy kashfiyotlari bilan o'lchanadi.

Buyuk shaxslar – millatning insoniyatga yo'llagan so'zi, uning qalbi va tafakkurining jahonga ochilgan eshigidir. Biz toleyi kulgan millatimiz – dunyo ijodkorlari orasida eng ko'p so'z qo'llagan shoirimiz bor. "Xamsa"dek ulkan dostonni turkiy tilda yaratgan, hali devon tuzmasidanoq dovruqi qo'shni yurtlarga yetib borgan, muxlislari uning she'rlariga ehtiyoj tufayli ikki devonni o'zlari tartib bergan shoir ham bizniki.

Bizning faxrimiz buyuk mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy nomida mujassam.

Ulug' ajdodimiz tavalludining 585 yilligi yurtimiz va jahon miqyosida ma'naviy bayramga aylandi. Sanaga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirlar nafaqat ilmiy, balki ma'naviy uyg'unish ruhini ham namoyon etdi.


Xususan, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida adabiyotshunoslik tarixida ilk marta Navoiyshunoslar forumining o'tkazilishi alohida ahamiyat kasb etdi. Unda xalqaro miqyosda faoliyat yuritayotgan yuzdan ortiq navoiyshunos olimlar, shoirlar va tadqiqotchilar qatnashdi.

(Davomi 5-sahifada.)

FAKT

- ✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra, 2026-yil 1-apreldan Adliya vazirligi, Energetika vazirligi hamda Soliq qo'mitasida Kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'limi tashkil etiladi.
- ✓ Vazirlar Mahkamasi farmoyishi bilan 13–14-mart kunlari "Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi!" shiori ostida umumxalq xayriya hashari o'tkaziladi.
- ✓ Xalqaro nufuzga ega "Condé Nast Traveler" nashri O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini iyun oyida tashrif buyurish tavsiya etiladigan eng yaxshi manzillar qatoriga kiritdi.
- ✓ "O'zbekneftgaz" Xitoyning "XIBU" kompaniyasi bilan 2026–2027-yillarda O'zbekistonda 30 ta quduq burg'ilash bo'yicha shartnoma imzoladi. Loyiha doirasida 450 tonnalik yuk ko'tarish quvvatiga ega 10 ta burg'ilash dastgohini O'zbekistonga keltirish ko'zda tutilgan.

MUNOSABAT



Prezidentimizning 2026-yil 15-yanvardagi "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda ma'naviy taraqqiyot va fikrlash madaniyatini mustahkamlash yo'lida muhim siyosiy yo'nalishni, tashkiliy va huquqiy mexanizmlarni belgilab berdi.

Bu vazifalarni bajarish jarayonida kitob targ'ibotini qanday shaklda amalga oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kitobxonlikni rivojlantirish uchun qaror qabul qilishning o'zi yetarli emas. Uning ijrosini sifatli va to'g'ri mexanizm bilan ta'minlash kerak. Qarorning bir bitta bandida bajarilajak vazifalar, kelgusi rejalar aniq va puxta ko'rsatib o'tilgan.

(Davomi 8-sahifada.)

XUSH KO'RDIK

BARCHA YO'LLAR VATANGA ELTADI!



Germaniyadagi "Humanitare schule" xususiy maktabi boshqaruvchisi Maryam SULTONOVA bilan suhbat

– Germaniya nafaqat Shiller, Gyotening vatani, shu bilan birga, Yevropaning ko'zini ochgan, tafakkurini o'zgartirgan Martin Lyuter kabi buyuk daholarning, ilm-ma'rifat borasida yirik islohotlar o'tkazgan fidoyi insonlarning yurti. Mana shunday yurtda hamyurtlarimiz ayni ta'lim sohasida ishlab muvaffaqiyatga erishayotgani ham hayratlanarli, ham quvonarli hol. Germaniyadagi tartib-intizom, mentalitet, dunyoqarash butunlay boshqa bo'lishiga qaramasdan, xotin-qizlarimiz bu yerda ham o'z o'rnini topib, hurmat-e'tiborga sazovor bo'lib mehnat qilmoqda.

(Davomi 3-sahifada.)



O'ZBEKISTON – TABARRUK ZAMIN

Boshlanishi 1-sahifada.

– Navoiy turkiy tilning hayratomuz imkoniyatlarini ijodi orqali isbotlab bergan. U nafaqat o'zbek, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan betakror siyomdir. Buyuk mutafakkir turkiy tilda ijod qilarkan, uni yuksaltirib, imkoniyatlarini namoyon etdi. Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir va mutafakkir, balki yirik davlat va jamoat arbobi sifatida ham madaniyat va san'at taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. U temuriylar davrida Hirot shahrini yirik ilmiy-madaniy markazga aylantirish tashabbusini ilgari surdi va bunga erishdi ham.

Bolaligimda o'zbek do'stlarim ko'p edi. Bemalol o'zbekcha gaplashardim, chunki qirg'iz va o'zbek tili juda yaqin. Ona tili qanchalik aziz va qadrdon bo'lsa, o'zbek tili ham ona suti bilan qalbinga kirgan. Shuning uchun ham, Navoiy ijodi bilan bolalik chog'larimdan tanishish baxtiga muyassar bo'lganman, g'azal va ruboiylarini yod olganman, hali-hanuz o'lmas satrlarini takrorlab yuraman.

Navoiy – o'lmas siyom. Har lahza, har kun va har qadamda buyuk zotga ta'zim qilsak, uning asarlari bilan faxrlansak arziydi. Yaqinda O'sh shahrida ul tabarruk zotning haykali tantanali ravishda ochildi. O'zbekistondan nufuzli delegatsiya qatnashgan marosim chinakam do'stlik bayramiga aylandi. Bu ikki qardosh xalq o'rtasidagi madaniy va diplomatik aloqalarni mustahkamlash yo'lidagi yana bir xayrli qadam bo'ldi.

– **“Turkiy dunyo Alisher Navoiydan qariyb 500 yildan keyin adabiyot cho'q-qisiga Chingiz Aytmatovni olib chiqdi”, degan gap bejiz aytilmagan. Ne baxtki, ana shunday shaxs bilan vatandosh, zamondosh va suhbatdosh bo'lgansiz.**

– Darhaqiqat, Chingiz Aytmatov – jahon adabiyotida o'chmas iz qoldirgan buyuk yozuvchi. Uning ijodi insoniyatni egzulikka, adolatga va ma'naviy poklikka chorlaydi. Aytmatov faoliyati nafaqat adabiyot, balki adabiy jamoatchilik va diplomatiya sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Asarlarida inson va tabiat munosabati, ma'naviy tanazzul, vijdon, xotira, milliy qadriyat mavzulariga katta urg'u beriladi. Shuning uchun ham, adib asarlari millat tanlamaydi.

Chingiz Aytmatovni ustozim deydishdan faxr tuyaman. U kishi haqiqiy ma'noda menga suyanch edi. Kitoblarimga so'zboshi yozib bergan, “Makka tomon uzoq yo'l” dramam sahnalashirilganda, teatrga kelib tomosha qilgan. Ustoz o'shanda menga duo bergan. Dunyo tanigan, tan olgan insonning duosini olib kam bo'lmadim.

Chingiz og'ani oxirgi bor ko'rganimda ikki soatcha suhbatlashgandik. Sezdimki, ustoz ancha horg'in, ammo fikrlari dadil va samimiy edi. Yaxshiyam, o'sha diyor nasib qilibdi. Ko'p o'tmay... qirg'iz xalqi o'zining buyuk farzandidan judo bo'ldi. Allohning azm-u irodasi, boshimiz egildi, qalbimiz yig'ladi. Ustoz vafot etgan bo'lsa-da, undan go'zal va ta'sirchan asarlar qoldi. Biz qo'limizdan kelgancha unga ergashamiz, xotirasini yod etamiz.

– **Siz xalqaro tajribani chuqur o'rgan-gan, ayni paytda, O'zbekistondagi islohot-larni yaqindan kuzatib kelayotgan davlat**



va jamoat arbobisiz. O'zbekiston rahbari-ning madaniyat va san'at yo'nalishidagi islohotlari haqida nima deya olasiz?

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev madaniyat va san'at sohasiga juda katta e'tibor qaratmoqda. Bu nafaqat milliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirish, balki zamonaviy ijodiy muhit yaratish, xalqaro maydonda milliy brendni targ'ib qilish, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash bilan bog'liq keng ko'lami siyosatdir.

Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan tarixiy islohotlarni, oqilona va odilona siyosatni butun dunyo kuzatib, tan olmoqda. O'zbek xalqi tarixida ikki Renessansga asos solgan. Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansga asos qo'yilmoqda. Uning poydevori zamo-

namizning buyuk siyosatchisi, davlat arbobi Shavkat Mirziyoyev g'oyalari va tashabbuslari asosida mustahkamlanmoqda. Har bir jabhada yangilanish va o'zgarish ko'zga tashlanayapti. Ilm-fan, madaniyat, sport, tibbiyot, iqtisodiyot... O'zbekiston dunyoning rivojlangan davlatlari bilan dadil tajriba almashmoqda.

Faxrlansa arziydiki, O'zbekiston zamini dunyo sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan ne-ne buyuk zotlarni tarbiyalagan. Abu Ali ibn Sino ilmi zamonaviy tibbiyotga poydevor bo'lgan. Buyuk muhaddis Imom Buxoriy jamlagan hadislar islom olamining bebaho

olinganini bilaman. Joriy yilning may oyida Budapesht shahrida film taqdimotini o'tkazishni rejalashtiryapmiz. Nasib qilsa, kelgusida boshqa davlatlarda ham film taqdimotini tashkil qilish niyatimiz bor. Chunki Sohobqiron Amir Temurning Yevropa davlatlariga ko'rsatgan ta'siri, san'at, madaniyat sohasini rivojlantirishga qo'shgan hisssasi, insonparvarlik siyosati mazkur film mazmun-mundarijasini tashkil qiladi. Bundan tashqari, “Tirik tarix” dasturi doirasida buyuk ajdodlarning boy ma'naviy-ilmii merosiga bag'ishlangan badiiy filmlar yaratilmoqda.

O'zbek diyorida ko'hna an'analar bardavom. Muhimi, dunyoni hayratga solayotgan yangi avlod bor, ularni qo'llab-quvvatlayotgan, g'amxo'rlik ko'rsatayotgan davlat rahbari bor. Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan keng qamrovli siyosatga biz ham xayrixohmiz.

O'zbekiston madaniyati, san'atiga hurmatim baland. Aynan O'zbekiston rahbarining sa'y-harakatlari va tashabbusi bilan maqom va baxshichilik san'ati, “Lazgi” raqsi qayta hayot topdi. Xalqaro maqom san'ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san'ati festivali, “Lazgi” xalqaro raqs festivali joriy qilindi. Bu nufuzli xalqaro madaniy loyihalarda Prezidentning shaxsan qatnashishi meni doim hayratga soladi.

Yana bir misol. O'zbekiston yetakchisining tashabbusi bilan “15-aprel – O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni” sifatida nishonlab kelinmoqda. Men o'tgan yili Andijonda tashkil etilgan bayramda naqadar yuksak e'tibor qaratilayotganiga yana bir karra amin bo'ldim. Bu – jahon ayvonida kam ko'riladigan favqulodda g'amxo'rlik namunasini.

– **Darhaqiqat, bugun dunyo madaniyat va san'atdan ko'ra urush va fitnaga ko'proq e'tibor qaratayotganday, ma'rifatni emas, jaholatni moliyalashtirishga zo'r berayotganday. Mana shunday murakkab davrda turkiy xalqlar birligi, san'ati va madaniyati uyg'unligiga najotkor kuchlardan biri sifatida qarash mumkinmi?**

– Dunyo, haqiqatan ham, murakkab jarayonlarni boshdan kechirmoqda: qurolli mojarolar, siyosiy kurashlar, axborot urushi, ma'naviy inqiroz... Bular – jaholat, ma'naviy halokat, san'at va madaniyatni yo'qqa chiqaruvchi ofatlardir. Lekin san'at – qurolidan ustun turadigan, qalbg'a ta'sir ko'rsatadigan, fikrni o'zgartiradigan katta kuch. Fikr o'zgar-sa, odamzotning muhitga munosabati ham o'zgaradi. Turkiy xalqlar madaniyatida insonparvarlik, bag'rikenglik va adolat g'oyalari azaldan keng targ'ib qilib kelingan. Ana



Shahribonu IMOMOVA

shunday boy ma'naviy meros orqali jaholat muhitini yumshatishimiz kerak. Bunga qodir-miz. Qurol-aslah, urush – tinchlikning dushmani, ammo madaniyat va ma'rifat egzulikka undaydi, tinchlik-osoyshtalikka ulug'laydi.

Siz ta'kidlagan birlik va uyg'unlikning yorqin namunasini o'laroq, TURKSOY Doimiy kengashining qarori bilan “Andijon – 2026-yilda turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e'lon qilindi. 2020-yilda Xiva shahri shunday maqomga ega bo'lgan edi.

Andijon – buyuk shoir, atqoli davlat arbobi, yetuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning yurti. Jadidlar harakatining yorqin namoyandasi Cho'lponning kindik qoni to'kilgan tuproq... O'zbek milliy qo'shiqchiligi sohasida ulkan maktab yaratgan mashhur hofiz va bastakor, O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayevni tarbiyalagan makon. Muhammad Yusufdek dilbar shoirni voyaga yetkazgan, maqom san'ati darg'asi Munojot Yo'ldiyevani bizga taqdim etgan tabarruk zamin... Yana qancha-qancha daholar beshigi.

Andijonning mazkur maqomga ega bo'lishi o'zbek madaniyati va san'atini xalqaro miqyosda tanitib, turkiy mamlakatlar bilan madaniy aloqani yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu maqom turkiy tillar va an'analarini o'rganishni, madaniy diplomatiyani yangi bosqichga ko'taradi.

Andijon uchun rang-barang loyihalar tayyorlanmoqda. Biz yaqinda Andijonda bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Andijon viloyati hokimligi rahbariyati bilan uchrashdik va yil davomida amalga oshiradigan tadbirlarimiz xususida atroflicha gaplashib oldik. Hali hammasi oldinda. Eng muhimi, bu yil Andijon uchun o'ziga xos madaniyat yili bo'ladi. Bu shahar timsolida O'zbekistonning betakror madaniyati, an'analari xalqaro miqyosda yanada keng targ'ib qilinadi. Mana shu ezgu vazifaga hissa qo'shish biz uchun katta sharaftir.

– **Kun tartibingiz tig'iz bo'lishiga qaramay, suhbat uchun vaqt ajratganingizdan minnatdormiz! Samimiy suhbat uchun katta rahmat.**

MUZEY

QISHLOQDAGI XAZINA

Kattaqishloq – Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida joylashgan. G'o'bdin tog' tizmalariga tutash, tabiati va tarixi betakror bu qishloqdagi 3-maktabda bundan 45 yil oldin o'lkashunoslik muzeyi tashkil etilgan. Muzey muhbir pedagog, yoshlarning ardoqli ustози Abirqul Bo'tayev nomi bilan chambarchas bog'liq. U kishiga Samarqand davlat dorilfununini bitirish arafasida oliygohda qolishni ko'p taklif qilish-gan. Lekin u shundoq ham o'qituvchi yetishmayotgan qishloq'dagi maktabda ishlashni tanladi.



bilan bog'lanib ketgani bois, Abirqul Bo'tayev dastlab “Yosh o'lkashunoslar” to'garagini ochdi. Keyinchalik mingga yaqin eksponatlarni 19 bo'limga ajratib, o'lkashunoslik muzeyini tashkil qildi. Eski omochlar, bo'yinturuq, yog'och panshaxalar, charxlar, don maydalaydigan yorg'u-choqlar, xitoy chinnilari, arab munchoqlari, tangali javaklar, XV–XVIII asrlarga oid qora chiroqlar, qoraqalpoq ruxsat galvirak ziraklar, manglayqosh, X asrga mansub Ismoil Somoniy, XV asrdagi Amir Temur tangalari, XIX–XX asrlarga taalluqli to'qima ust-boshlar, chimmatlar, ot-ulov anjomlari, patefonlar, “Zinger” tikuv mashinasi, salkam 5 chelak sig'imli xum, ko'zalar, V–VIII asrga oid arxeologik topilmalar – sopol haykalchalar nodir eksponatlar hisoblanadi. Kushonlar davriga oid katta sopol xum – ostadon

ham shu qishloq tepaligidan topilgan. Xumda odam suyaklari borligi aniqlangan. O'sha paytlari “Qiziqarli fizika”, “Qiziqarli astronomiya”, “Qiziqarli geometriya” fanlari qatori tarixni ham qiziqarli o'tish uchun ko'rgazmali vositalarga ehtiyoj sezilardi. Abirqul Bo'tayev boshqa tumanlardan kelgan o'qituvchilarga ham muzeydagi ko'rgazmali qurollardan amaliyotda foydalanishga ruxsat berardi. Respublikamiz bo'ylab tarix o'qituvchilari yosh muallim-dan darsni ekskursiya shaklida muzeyda o'tish tajribasini o'rgangan.

Muzey eksponatlari mustaqil tadqiqotchilarning e'tiborini tortib, ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularning yozishicha, Abirqul Bo'tayev savollarga kamtarlik bilan javob berar, o'zining jonkuyarligi va yurtparvarligi

haqida umuman og'iz ochmasdi. Ha, oddiy qishloqlarda bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan odmi va ayni paytda bilimdon, uzoqni ko'ra oladigan donishmandlar bor.

Abirqul og'a ellik besh yoshida, ayni qirchillama paytda olamdan o'tdi. Ammo uning sa'y-harakati samarasi bo'lgan mo'jaz muzey barhayot ustoz bo'lib, o'quvchilarga, tuman aholisiga tarixdan saboq berib kelmoqda.

Yaqin orada Bulung'urga yo'lingiz tushdimi? Kattaqishloqqa qancha yo'llar obod bo'ldi, yangi maktablar, kasalxonalar qurildi. Turizmni rivojlantirish maqsadida uzoq manzillarga eltadigan so'nggi ruzumdagi avtoulavlar qatnovi yo'lga qo'yildi. Hayotimiz farovonlashib bormoqda. Ayni ana shu dorulomon kunlar qadriini anglashimiz uchun bizga o'tmishdan hikoya qiladigan ashyolar manbasi – muzey juda ham zarur. O'yaymizki, Abirqul muallimning maktab sinfonalariga sig'may, xonadonlarda saqlanayotgan noyob kolleksiya ashyolari ham zamonaviy ko'rgazma rastalaridan joy olib, alohida maskanda o'z umrini davom ettiradi.

Zero, tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.

Feruza TO'YCHIYEVA, Bulung'ur tumanidagi 3-maktab o'qituvchisi



Boshlanishi 1-sahifada.

Ikkinchi Jahon urushidan so'ng Bayniyoz Qaypnazarov “Hayrat ul-abror” dostonini tarjima qilgan.

UMMONDAN BAHRA

Jo'Imirza Aymirzayev va Navro'z Japaqov tomonidan ayrim g'azallar qoraqalpoqchaga o'g'irilgan. Maten Matnazarov 1961-yilda “Saddi Iskandariy” dostonini qoraqalpoq kitobxonlariga taqdim etgan. Daulen Aytmuratovning tarjimalari 1977-yilda “Qoraqalpog'iston” nashriyotida bosmadan chiqqan.

Keyingi yillarda qoraqalpoq adabiyotida Alisher Navoiy ijodiga qayta-qayta murojaat qilingan. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov muxammalarini olasizmi, Abulqosim O'tepbergenov, Turkmenboy Jiyamurotov g'azallari yoki Sharafaddin Ayapov, Jabborbergan Shamuradov tomonidan Navoiy g'azallari tarjimasini olasizmi, barchasida daho shoir ijodiga cheksiz hurmat va ehtirom balqib turadi.

Ma'lumki, g'azal janri shakli xususiyatlari, o'ziga xos ritmi va musiqiyli bilan ham kishini maftun qiladi. Demak, bu xususiyatlar g'azalning ikkinchi umri – tarjimalarda ham ifoda topishi shart. Agar tarjima yaxshi chiqmasa, uni o'qigan kitobxon, tarjimonning no'noq ishiga emas, muallifning o'ziga ixlossiz qaray boshlaydi. Tarjimon muallif uslubini, davr ruhi, adabiy an'ana kabilarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lmog'i lozim.

Ayniqsa, g'azallarni tarjima qilish o'ta qiyin va mas'uliyatli ishdir. Navoiy esa aynan shu janrda barakali qalam tebratgan shoir. Ohangdor ritmik hijolar asosida tarkib topadigan g'azallarni tarjima qilish uchun aruz nazariyasini puxta bilish, mumtoz nazm an'analaridan yaxshi xabardor bo'lish kerak. Chunki biror g'azalni vaznini saqlagan holda boshqa tilga ko'chi-

rish – uning ohangi, binobarin, shoirning kayfiyati, tuyg'ularini ham yetkazib berish, demakdir. Shu talablardan kelib chiqqan holda, “Qoraqalpoq adabiyoti” gazetasida Alisher Navoiy ijodidan berilgan ayrim tarjimalarni kuzatdik. Gazetada e'lon qilingan Ibroyim Yusupov, Abulqosim O'tepbergenov, Jabborbergan Shamuradov tarjimalarini muvaffaqiyatli chiqqan, deysih mumkin. Bu tarjimalarda g'azallarning kompozitsion qurilishi, ma'nosi, ohangi, qofiya va radiflarini saqlashga katta e'tibor berilgan. Ushbu tarjimonlarimiz tomonidan o'g'irilgan ijod namunalari qoraqalpoq adabiyotini boyitishga hissa qo'shmoqda.

Anvar ALLAMBERGENOV, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori



BARCHA YO'LLAR VATANGA ELTADI!



Boshlanishi 1-sahifada.

Siz ulardan biri sifatida Myunxendagi "Humanitäre schule" maktabida boshqaruvchi bo'lib ishlayapsiz. "Ich bin stark, ich sag laut Nein!" nomli kitobingiz nemis maktablarida qo'llanma sifatida foydalaniladi.

O'zingiz haqingizda qisqacha aytib bersangiz. Sizni qanday taqdir yetakladi bu joylarga?

– Men Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanida tug'ilganman. Oddiy qishloq qiziman. Oltinchi sinfgacha 24-maktabda, yettinchi sinfdan tumanimizdagi birinchi litsey-internatda o'qiganman. U yerda bizga juda kuchli pedagoglar dars berardi. 2004-yilda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining nemis tili fakultetiga qabul qilindim. Germaniyaga yo'l shu oliygo'dan boshlangan.

– Yaxshi-yomon fan bo'lmaydi, yaxshi yoki yomon o'qituvchi bo'ladi, deyishadi. Sizning yodingizdan chiqmaydigan, hayotingizni o'zgartirgan o'qituvchilaringiz bormi?

– Hayotim va faoliyatimdagi ko'p narsalarni litseydagi ustozlarimdan o'rganganman, chunki aqlimni tanib, ta'limning qadriga yetganimda, shu insonlarning qo'lida bo'lganman. Ularga rahmat aytaman! O'quvchi-talaba xom loyday gap: uni pishitib, shakl berib, tobiga yetkazgan ustozlar bo'ladi. Biz ulardan uzoqlashib ketsak ham, qiyinchiliklarni yengib o'tishda, muvaffaqiyatlarga erishishda saboqlariga suyanamiz.

– Endi Germaniya va uning ta'lim tizimi haqida gaplashsak. Bilishimcha, bu davlatda har bir federal okrugining o'z qonun-qoidalarini bor. Jumladan, ta'lim tizimida ham. Bu farq nimalarda ko'rinadi?

– Darhaqiqat, 16 ta federal o'lka bo'lsa, ularning ta'lim tizimida farq katta. Birinchi navbatda boshlang'ich sinflar chegarasida ko'rinadi bu farq. Bavariya 1-4-sinflar boshlang'ich hisoblanadi. Boshqa federal o'lkalarda 1-6-sinflar boshlang'ich maktab hisoblanadi. 4-sinfdan keyin bolalar uchta toifaga ajratiladi. A'lochilar gimnaziyaga ketadi, o'rtachalar "Realschule" (o'rta ta'lim tizimining bir turi, odatda 5-10-sinf), o'zlashtirishi past o'quvchilar "Mittelschule" (asosan Bavariya va Saksoniya yerlarida ta'lim tizimining amaliy yo'nalishdagi turi)ga jo'natiladi. Bu toifalarning tanlovni, masalan, Berlinda bolalarning o'zi hal qilsa, Bavariyada maktab, o'qituvchilar, baholar hal qiladi. Aytish kerakki, Bavariya Germaniyada ta'lim sistemasi qattiqqo'llik bilan olib boriladigan hududlardan hisoblanadi. O'zbekistondagi viloyat maqomiga teng hudud birligida alohida ta'lim vazirligi, o'zining sotsial vazirligi bor.

– Bu farqni darsliklarda ham ko'rish mumkinmi?

– Yuqoridagi uchta ta'lim bo'g'inida katta farq bor. Yaqinda shu bo'yicha taqdimot tayyorlagan edik. Masalan, boshlang'ich maktabda bitta kitob o'qitilsa, gimnaziyada yettita kitob o'qiladi, yuqori sinfda to'rtta, amaliy yo'nalishda ikkita kitob o'qitiladi. Darsliklar barchasi barobar emas, o'zlashtirish o'quvchilar qobiliyatiga qarab o'zgartirib boriladi.

Darsliklar bolalarga tekin tarqatiladi, yuz foiz davlat ta'minotida. Har bir federal o'lka o'zi uchun darslik yaratadi. Keyin har bir maktab qaysi darslik bilan ishlayotgani o'zi hal qiladi.

– O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida umumta'lim maktablarining ming AQSH dollari va undan yuqori miqdorda ish haqi oluvchi o'qituvchilari soni 6 ming nafardan oshdi. Bu borada Germaniyada holat qanday?

– Bu yerda ta'lim tizimiga e'tibor namunasi shuki, o'qituvchilarga ham "Beamte" ma-



qomi berilgan. Bu "xalq xizmatchisi", "davlat xizmatchisi" degan ma'noni bildiradi. O'qituvchilar ma'lum vaqt ishlagandan keyin vazirlik mas'ullari, militsiya xodimlari, harbiylar, sudyalari qatorida ushbu rutbaga erishishi mumkin. Bunda maoshdan soliq imtiyozlari beriladi, tibbiy sug'urta kafolatlanadi, pensiya ta'minoti yuqori miqdorda belgilanadi. Shuning uchun ham o'qituvchilar motivatsiya bilan ishlaydi.


Endi bir jihat bor, Germaniyada "bo'yimoqchi bo'lsang, sotsial sohada ishlama", degan yozilmagan qoida bor. Bu sohada ishlaganlar boyib ketmaydi. Haqiqatda kasbini sevadigan, bolalarni yaxshi ko'radigan odamlar ishlaydi bu sohada.

– Fidoi odamlar! Shundaymi?

– Aynan! Fidokorlik talab etiladi.

– Xususiy va davlat maktablarining umumiy va ayri xususiyatlariga to'xtalib o'tsangiz.

– Germaniyada xususiy maktablar juda kam. Asosan ingliz tiliga ixtisoslashgan maktablar xususiyatlashgan. Maktablar, boshlang'ich maktablar davlat tasarrufida. Maktablar ta'lim vazirligi va sotsial vazirlik bilan birgalikda tashkil



Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zligini ham shunchalik anglaydi.

GYOTE

qilingan.

Myunxen shahrida uylar va binolarning ijarasi yuqori narxda bo'lgani uchun darslar ikki smenada olib boriladi. Tushlikkacha o'qituvchilar dars bersa, tushdan keyin ikkinchi darajali o'qituvchilar dars beradi. Ularni o'zimizdagi tarbiyachilarga tenglashtirish mumkin. Tarbiyachilarning tushlikdan keyingi tashkiliy ishlariga men mas'ulman.

– Maryamxon, Germaniyada asosan qaysi fanlarga urg'u beriladi?

– Boshlang'ich maktablarda asosan uchta fanga urg'u beriladi. Bular matematika, nemis tili va "Heimat-und Sachunterricht". Bu fan O'zbekiston sharoitida "Vatan tuyg'usi", "Tabiat", "Boshlang'ich fizika", "Salomatlik" fanlarining yig'indisiga teng. Asosiy maqsad yangi avlodni kichik yoshdan vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat va nemischa tartibga rioya ruhida tarbiyalash.

– Bu yerda o'qituvchilarning qanday yuklamalari bor? Masalan, maktabingizda ko'ryapmanki, pedagoglar har xil kiyimda...

– Bu yerda o'qituvchilar juda erkin ishlaydi. Sinfxonaga qanaqa jihoz qo'yimoqchi, qaysi darslik bilan ishlayotgani, bugun bolalar bilan qaysi mavzularni o'tmoqchi – o'zlari hal qiladi. Darslar ketma-ketligini ham mustaqil hal qiladi. Masalan, birinchi soat matematika, ikkinchi soat ona tili deyilgan bo'lsa, xohishlariga ko'ra almashtirishi mumkin. Yoki bugun sinfda matematikaga ehtiyoj yuqori bo'lsa, o'zaro kelishib, ikki soat matematika o'tishlari mumkin ona tilining ham o'rniga. Ko'p narsalarni o'zlari hal qiladi.

E'tiborli jihati, o'qituvchilar faqat dars uchun javob beradi. Bolalar tashqarida urishib qolsa, qanaqadir muammolari bo'lsa, maktabda bu bilan shug'ullanadigan sotsial-arbayteri bor. U bolalarning ijtimoiy muammolariga javobgar shaxs. Uyam har kuni olti soat maktabda bo'ladi, bolalar bilan shug'ullanadi. O'quvchilar o'rtasida nizo bo'lsa, o'qituvchi vaqtini uning yechimiga sarflamaydi, bolalar o'sha xodimning yoniga ketishadi. O'qituvchining vazifasi faqat o'qitish, dars tugaydi, ketadi.

– Ba'zan o'zimizda o'quvchilarning o'qituvchilarni behurmat qilgani, bepisan munosabatda bo'lganini ko'rib, eshitib qolamiz. Maktablar davlatning tasarrufida bo'lgani, ta'lim bepul berilayotgani uchun qadri yo'q o'qituvchining, degan qarashlar ham bor. Lekin Germaniyada ham shunaqa ekan-ku, ta'lim.

– Germaniyada zo'ravonlik, hurmatsizlik deyarli hech qaysi sohada kuzatilmaydi. O'qituvchi bilan ota-ona gaplashayotganda "Professionelle Ebene" doirasidan chiqmaydi. Ya'ni suhbatda shaxsiy masalalar aralash-tirilmaydi, faqat bola va uning ta'limi haqida gap ketadi. Ota-onalar ham hurmatsizlik qilishmaydi. O'qituvchilar ham shunga munosib bo'lishga harakat qiladi. Qolaversa, davlat o'qituvchilarni xafa qildirib qo'ymaydi.

– Bizda ham o'qituvchilar obro'sini oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus qonunlar qabul qilinmoqda. Prezidentimiz o'qituvchi maqomini qat'iy belgilab qo'ydi. O'qituvchilar ta'limdan boshqa ishlariga jalb qilinmaydi. Bu borada ham O'zbekiston o'z tajribasiga ega bo'lib bormoqda.

Myunxenni kezar ekanman, tarixiy obyektlar: saroylar, cherkovlar, teatrlar, haykallar va boshqalarning mukammal saqlab qolingani, asliday tiklangani meni hayratga soldi. Tarixan olganda, qisqa vaqtda nemis xalqi o'zining qaddini tiklab, dunyoning siyosiy, ilmiy va texnikaviy liderlaridan biriga

aylangan davlatni oyoqqa qo'ydi. Buning sababi nimada, deb o'ylaysiz?

– Buning sababi nemischa mentalitetda. Nemislar har bir ishni juda jiddiy qabul qiladi, mukammal darajada bajarishga harakat qiladi. Ularda topshiriqni qo'l uchida bajarish, o'zini ayab, beparvo bo'lish odati yo'q.

"Deutsche Pünktlichkeit" iborasini bizda ko'proq "немецкий расчёт" tarzida og'zaki muloqotda ishlatishadi. Buni "olmoncha aniqlik", "nemischa intizom" desa bo'ladi. Nemislar aytilgan joyga vaqtda boradi, vazifalarni ham belgilangan muddatda bajaradi. Uchrashuv yo'q ishga erta kelish, kech qilish degan gap yo'q. Hatto, o'zaro ko'rishganda ham bir-birining vaqtini olmaydi.

– Buning o'zbekcha nomi "lafz" deyiladi. Nemislar ko'proq kimlarning asarlarini o'qiydi? Mumtoz adiblarini biladimi?

– Boshlang'ich sinflardayoq Gyote she'rlarini yodlashadi. Shillerni ham ko'p o'qishadi. Kitobxonlar zamonaviy adiblardan ko'ra klassikani ma'qul ko'radi.

– 500 yil yo 300 yil oldin qalam tebratgan ijodkorlarning tili bugun ham tushunarlimi yoshlarga?

– Katta qismi tushunarli. Masalan, mumtoz g'azallarni hozirgi yoshlarimiz tushunishlari qiyin. Lekin olmonlar klassikani lug'atsiz o'qib, mag'zini chaqib ketaveradi.

– Chet elda o'z o'rnini topish oson emas. Odamlar asosan Sizning yutug'ingizni ko'radi va hayot chet elda oson ekan-ku, deb o'ylab qoladi. Mana shunday muhitga kelib, obro' orttirish uchun nima kerak?

– Bardosh, bardosh va moslashuvchanlik kerak. Baxtimizga xalqimiz bardoshli. Moslashishga ham qiynalmaymiz, tirishqoqimiz.

– Endi Germaniyada yashayotgan bir inson sifatida, nemislarning to'y va ma'rakalari haqida nima deya olasiz?

– Shahar markazida turamiz. To'ylari ixcham shaklda o'tkaziladi. Lekin azalari hashamdorroq. Birinchi cherkovga borishadi, juda ko'pchilik keladi, gullar, bezaklar keltiriladi, keyin tobut bilan dafn marosimi...

– Masalan, bizga o'xshab dasturxon yozib, "yettisi", "qirqi", "yuzi" kabi yig'inlari bormi?

– Yo'q, unaga narsalar bo'lmaydi. Hashamat dafn kunining o'zidayoq yakun topadi. Keyin hamma o'z ishi bilan andarmon bo'ladi.

– Siz aytgan hashamda isrof yo'q...

– Shunday. Na to'yda, na azada isrofgarchilik ko'rasiz. Nemislar to'ydan ko'ra azaga e'tiborli. Maxsus musiqalar, mayda-mayda, lekin ahamiyatli urf-odatlar ado etiladi. Uzoq yashagan insonga farzandlari o'z hurmatini shunday ko'rsatishadi.

– Taqqoslash imkoni bor odam sifatida, endi umumlashtirib, O'zbekiston va Germaniyadagi yashash tarzi haqida nima deya olasiz?

– O'zbekistonda vaqt barakaliroq. Insonlar bilan aloqa, jonli muloqot ko'p. Yuzma-yuz ko'rishish, samimiy hol-ahvol so'rash, suhbat ko'p. Vatanga borsam, Germaniyaga qaytib kelgim kelmaydi. Chunki bu yerda hayotimiz ko'pincha bir xillikdan iborat. Ertalab turamiz, bolamizni maktabga jo'natamiz, ishga ketamiz, ishlaymiz, uyga boramiz. Bu yerdagi ishga bo'lgan talabning yuqoriligi va odamlarning muntazam shoshib yurishi energiyangizni so'rib qo'yadi. Ishdan keyin boshqalar bilan ko'rishishga hol, xohish qolmaydi.

Germaniya rivojlangan davlat, lekin hamma rivojlangan davlatlar har tomonlama rivojlanadi, ya'ni ijobiy o'sish bilan birga salbiy natijalar ham bor. Bu yerda ruhiy kasallikka chalinganlar, depressiyaga tushganlar ko'p, shifoxonalar to'la. O'zbekistonda, Allohga shukur, depressiy odam kam. Nimaga? Muammosini oilasi, qarindoshlari, qo'shnilari, do'stlari, hamkasblari bilan bo'lishadi. Mahallaga chiqadi. Agar amaliy yordam ololmasa ham, yuragini bo'shatib, yengil tortadi. Hamdardlikni his qiladi.

– O'zbekchilik.

– Ha, o'zimizning o'zbekchilik. Odamgarchilik, mehr-muhabbat, oqibat. Shu narsalar baribir insonning mental sog'ligini hal qiladigan narsalar. Oilaning mustahkamligi. Bu yerda

esa birovning dardi u yoqda tursin, odamlarga ko'ylagining kiri ham og'irlik qiladi.

– Germaniyaning jadalik tarixi bilan bog'liq jihatlari bor. O'tgan asrning 20-yillari jadidlar tuzgan "Ko'mak" jamg'armasi yordamida sara yigit-qizlar Germaniyaga o'qish uchun yuborilgan. Germaniya o'sha paytda ham ilm-fan sohasida Yevropada peshqadamlardan hisoblangan. Mana shu tarix xususida tasavvurlaringiz bormi?

– Bor. Ular yetmish nafar bo'lgan. Qizg'ib, ikki nafari qiz. Bir asr oldin olis yurtidan kelib, Germaniyaga ko'nikish, olmon xarakteriga moslashish, yuqori pedagogikaga javob berish oson bo'lmagani aniq.

– Ana shu jasoratli va matonatli ikki qizning biri – Maryam Sultonmurodova bo'lgan. Qarang, qariyb otdosh ekansiz.

Maryam Sultonmurodova 1922-1923-yillarda Berlindagi nemis xonadonida yashab, Berlin universiteti qoshidagi 6 oylik nemis tili kursini tugatadi. 1924-yili Darmshtadtga borib, o'qituvchilar seminariyasida o'qiydi. 1927-yili Berlinga kelib, bir yil davomida amaliy mashg'ulotda bo'ladi. 1928-yilda o'qishni tugatib, SSSRga qaytib keladi va pedagogika, jurnalistika sohasida faoliyat yuritadi. Ammo 1937 va 1949-yillarda josuslikda ayblanib qamaladi, surgun qilinadi. Faqat 1957-yilda oqlanadi, ammo bu paytda u nogironga aylanib bo'lgan, yoshligi va quvvayi hofizasidan ayrilgan edi.



Maryam Sultonmurodova, Germaniyada o'qigan talaba

Tasodifi qarangi, oradan yuz yil o'tib Turkistondan Olmoniya tomon yana bir Maryam ilm sohasida yo'l oldi. Faqat endi o'rganish uchun emas, o'rgatish uchun. Bir asr oldin nemislardan o'zbek qizi dars olgan bo'lsa, bugun nemis bolalariga o'zbek qizi dars beryapti, kitob yozyapti.

Lekin qahramon adashingizdan farqli ravishda, Sizni Vatanda jazo emas, shon-sharaf kutib turibdi. Shu o'rinda oxirgi savol: O'zbekistonga borib dars berish taklif etilsa, borasizmi?

– Germaniyaga taqdir taqozosi bilan oilaviy kelganmiz. Taqdir nasib qilib O'zbekistonga qaytsak, albatta, o'z sohada ishlayman. Chunki bu sohaga insonlarni, bolalarni sevganim uchun kirganman. O'zbekistonga ham yangi g'oyalarni bilan boraman, albatta.

– Prezidentimizning bir iboralari bor: "Bilim – o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan eng katta boylik". Mana shunday katta bir boylik egasi bo'lyapsiz. Barcha yo'llar Vatanga eltadi! Xudo xohlasa, keyingi suhbatimiz Marg'londa bo'ladi, deb umid qilaman.

Salomat bo'ling! Ishlaringizga rivoj, oilangizga tinchlik tilayman! Katta rahmat Sizga! "Jadid" gazetamizni elektron shaklda kuzatib borish imkoniyatingiz bor. Bizning gazetamizning shiori Sizning shioringiz bilan bir xil: "Tilda, fikrda, ishda birlik!"

Iqbol MIRZO suhbatlashdi.

Germaniya,

Myunxen shahri



Iroda inson bolasining o'ziga xos sifatidir, aql esa irodani boshqarish uchun o'zgarimas qoidadir.

Fridrix SHILLER



UYG'UQ XOTIRA

Hayotda shunday insonlar bo'ladiki, hayot yo'liga havas qilib, o'g'itlariga yo'lchi yulduzga talpingandek intilasan. Filologiya fanlari doktori, professor, akademik, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi To'ra Mirzayev ana shunday o'z ismiga munosib, aytar so'zi bilan ishi bir bo'lgan, shaxsiyati va ilmi bilan ibrat maktabini yaratgan olim edi. Ustoz hayot bo'lganida bu yil to'qson yoshga to'lgan bo'lardi.

To'ra Mirzayev 1936-yilning 6-martida Shofirkon tumaniga qarashli Savrak qishlog'ida tug'ilgan. Ustozda folklorga qiziqish onasi Ma'mura aydan eshitgan alallari, xalq qo'shiqlari, otasi Mirzo Ro'ziyevdan eshitgan turli rivoyat-u afsonalar tufayli bo'lsa kerak. Chunki ustoz suhbatlarda, albatta, onasi yoki otasi nomini tilga olar, bolalikda eshitgan folklor namunalari qanday ijro etilishi haqida fikr bildirar edi. Uning bolaligi urush yillariga to'g'ri kelgan, yosh bo'lishiga qaramay, kattalar yonida turib mehnat qilgan, hayotni, odamlarni yaxshi o'rganagan. Dastlab o'rta maktabda, so'ngra esa Buxoro davlat pedagogika institutining tarix va filologiya yo'nalishida tahsil olgan. Institutni imtiyozli diplom bilan tugatib, Surxondaryoning Jarqo'rg'on tumaniga borib, maktabda o'qituvchilik faoliyatini boshlagan. Bu uning taqdirini o'zgartirib yuborgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'tgan asrning 60-yillari Surxondaryoda to'ylar, tadbirlar baxshilar tomonidan kuylanadigan dostonlarsiz o'tmagan. Bu hududda folklorga oid barcha namunalarning go'zal va betakror ijrosi bilan tanishish imkoniyati yuzaga kelgan. Shuning uchun bo'lg'usi olim yoshlik g'ayrati, pedagogik mahoratini ishga solib, darhol "Yosh folklorshunoslar" to'garagini tashkil etib, o'quvchilar bilan birgalikda hududdagi folklor namunalari yozib olish ishlarini boshlab yuborgan.

1960-yilda To'ra Mirzayev Jarqo'rg'onlik Mamadrayim baxshidan "Nurali" dostonini yozib oladi. Katta bir material yig'iladi. Endi bu materiallarni o'rganish, uni ilmiy tasniflash zarurati tug'iladi. Shu maqsadda To'ra Mirzayev Toshkent sari yo'l oladi. O'zbek folklorshunosligi asoschisi, taniqli olim Hodi Zarif oldiga shogirdlari bilan to'plagan boy xazinani olib keladi. Ikki ulug' insonning tanishishi, bir-biriga mehr qo'yishi shu taxlit boshlanadi. Hodi Zarif uning ishtiyoqi, amaliy tajribasini ko'rib, shogird qilib oladi.

To'ra Mirzayev O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining folklor bo'limi aspiranturasida tahsil olar ekan, "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari bo'yicha ilmiy tadqiqotni boshlab yuboradi.

YANGI NASHR

O'zbek adabiyoti tarixida hukmdor-shoirlar sezilarli iz qoldirgan. Yaqin o'tmishda ularning ijodi mafkura talablariga ko'ra o'rganilmadi yoxud bir yoqlama tadqiq qilindi. Bugun esa vaziyat tubdan o'zgardi, bu merosni to'la-qonli o'rganish uchun barcha imkoniyatlar eshigi ochiq. Manbashunos Otabek Jo'raboyevning "Said Muhammad Alixon. Devon" kitobi ana shu bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan. Kitobda "Xon" taxallusi bilan ijod qilgan Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1808–1842) devoni haqida gap boradi.

Muallif adabiy meros tahlilidan oldin xonlikdagi tarixiy-ijtimoiy vaziyat, adabiy hayot hamda hukmdorning siyosiy faoliyatini birlamchi manbalar asosida yoritadi. Shuningdek, bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini e'tirof etadi, ularga hurmat bilan yondashadi va ayni paytda tanqidiy munosabatda bo'ladi. Masalan, ayrim zamonaviy tarixchilar hukmdorni "ishratbozlik va axloqsizlik"da ayblagan bo'lsa, olim ularga qarshi tarixiy dalillar keltiradi. Uningcha, Muhammad Alixon hukmdorlik davrida (1822–1842) xonlik hududi kengaygan, xalq nisbatan osoyishta hayot kechirgan, madaniyat taraqqiy topgan. Qo'qon xonligining 1842-yildan 1876-yilgacha bo'lgan davrida har besh-o'n yilda xon almashib turgani, siyosiy

vaziyat beqaror bo'lganini hisobga olsak, olimning mulohazalariga qo'shilish mumkin.

Bundan tashqari, adabiyotimiz tarixida o'zining keskin hajviy she'rlari bilan shuhrat qozongan Maxmur xonga iliq munosabatda bo'lgan. Olim Buxoroda yashab, ijod qilgan Qori Rahmatulloh Vozehning "Tuhat ul-ahbob fiy tazkirat-ul-as'hob" kitobida (1817–1894) ham Muhammad Alixon faoliyati va ijodiga xolis baho berilganini qayd etadi. U o'tmishning ziddiyatli tomonlaridan ko'z yummaydi, xaspo'shlamaydi, hukmdorga nisbatan keskin munosabatda bo'lgan "Muntaxab ut-tavorix"ning muallifi Muhammad Hakimxon to'ra fikrlarining sabablari haqida ham atrofla to'xtaladi: "Ajablantirishi, asarning forsij tilidagi nusxalaridagina shunday biryuqlama fikrlarni ko'ramiz. Uning turkiy-o'zbekcha nusxalarida bu taxlit salbiy yondashuv yo'q. Ularda munosabat va talqinlar anchayin yumshatilgan va ijobiyroq".

O'tmishga nisbatan xolis munosabat bildirish, ziddiyatli, qarama-qarshiliklarga to'la tomonlarni bo'yamasdan, imkon qadar to'liq va obyektiv ko'rsatish kitobning ilmiy qiymatini oshiradi. Muhimi, bugungi avlod moziy haqidagi haqiqatni boricha bilishi shart. Shundaygina, o'tmish haqida tasavvurlar to'liq bo'ladi. Tarixdan saboq olish, tanqidiy idrok etish hamda bugungi kunlarning qadriga yetish va kelajakni aniq belgilash



imkon bo'ladi. O'tmish haqida so'z yuritganda o'tkinchi, siyosiy konyunktura talabidan kelib chiqib qalam tebratish o'zini oqlamagan va oqlamaydi ham.

Muhammad Alixonning siyosiy faoliyati va mamlakat xavfsizligini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlari tarixiy, adabiy manbalar hamda zamonaviy xorijiy tadqiqotlarga tayangan holda chiziladi: "Muhammad Alixon shimol – chor Rusiyasi tomonidan kelayotgan xavfni to'g'ri ilg'agan va mamlakat qo'shinini mumkin qadar zamonaviy andozada shakllantirish harakatini boshlagan. U bu borada, ayniqsa, Usmonli Turk imperatorligi bilan bir necha diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yadi. Shuningdek, 1830–1840-yillarda chor qo'shinlariga keskin qarshilik ko'rsatgan qozoq xoni Kenesar

olinganiga izoh berilmagan. To'ra Mirzayev bu parchalarni sinchiklab o'rganadi va uni baxshilardan yozib olingan matn bilan solishtirib, asarning boshlanishidan Boysarining Kasha'ga ko'chishigacha bo'lgan qism Fozil Yo'dosh o'g'ildan, Alpomishning Barchinni izlab yo'lga chiqishi bilan bog'liq voqealar Hamroqul baxshidan olingan, degan xulosaga keladi.

To'ra Mirzayev "Alpomish"ga aloqador nimaiki bo'lsa, e'tibordan chetda qoldirmas, manba yoxud kitob holda chop etilgan variantlari bilan cheklanmay, jonli ijrolariga ham alohida ahamiyat berar edi. Ilk bora ushbu dostonni monografik miqyosda o'rganib, qirqdan oshiq variantlarini tahlilga tortib, o'zbek folklorshunosligini dunyoga tanitdi. Dostonning yaratilishi bilan bog'liq turli bahsli savollarga javob topib berdi. Doston variantlaridagi motiv, sujjet va obrazlar talqini qadim davrlarga borib taqalishini, Fozil Yo'dosh o'g'li variantini asos qilib olgan holda, uning barcha variant va versiyalar orasida mukammalligini isbotladi.

Eng muhimi, To'ra Mirzayevga qadar hech bir folklorshunos birgina dostonning ko'plab variant va versiyalarini tahlilga tortib, ularni yaxlit hodisa o'laroq tadqiq etmagandi. Zero, dunyoga taniqli Viktor Jirmunskiydek olimning endigina nomzodlik ishini yoqlagan yosh tadqiqotchiga maktub yozib, minnatdorlik bildirishi bejiz emasdi. Bu, ilm olamiga o'zining dadil qadami, jiddiy tadqiqoti bilan kirib kelgan olimning iqboli balandligini ko'rsatardi.

"Alpomish" dostonini tadqiq etish shu bilan chegaralanib qolmas. Ustoz umrining so'ngiga qadar har bir maqolasi, tadqiqotida dostonga qayta va qayta murojaat qildi. Keyinchalik nashri yo'lga qo'yilgan "O'zbek folklor yodgorliklari" ko'p jildligining dastlabki "Alpomish" dostoni variantlariga bag'ishlangan jildlariga yozilgan so'zboshi va izohlarda yangicha fikr va qarashlarini bayon etdi. To'ra Mirzayev sa'y-harakatlari bilan doston Germaniya, Turkiya, Xitoy, Qozog'istonda nashr etildi.

Olim "Xalq baxshilarining epik repertuari" monografiyasida dostonchilik san'atining qadimiy ildizlari, uning janriy xususiyatlari, baxshi maktabining hududiy o'ziga xosligi, repertuari, har bir maktabdagi ijrochilarning mahorati va badihago'yiligi, doston ijrosida baxshining doimiy ravishda takrorlanib keluvchi an'anaviy misralarga amal qilishi bilan bog'liq savollarni muhokama qilgan va Ergash Jumanbulbul o'g'li ijodi misolida baxshi repertuari masalalariga oydinlik kiritgan.



Ma'lumki, epik formula – eposning yadrosidir. Biz epik formulaning nimaligini tushunmay turib, dostonlar mohiyatini anglab yetolmaymiz. Og'zaki ijodning qonuniyati bitta, bu epik formulaga asoslanganlikdir. Bu ijodning og'zakligini, an'anaviyligini ta'minlaydi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida amerikalik olimlar M.Perrri va A.Lord Yevropada so'nb borayotgan baxshichilik san'ati namunalari tinglab, fanda katta inqilob qilishdi. Ya'ni ular epik formula nazariyasi asosida Gomerning individual ijodkor, shoir emas, balki baxshi ekani, "Odisseya" va "Iliada" xalq ijodi namunalari ekanini isbotlashdi. Garchand epik formula haqida Hodi Zarif tadqiqotlarida ma'lumotlar uchrasa-da, To'ra Mirzayev o'z kitobida uni xalq og'zaki ijodining qonuniyatlarini o'zida mujassam etgan yaxlit adabiy hodisa sifatida tadqiq etdi.

"Go'ro'g'li" dostoni o'zbek folklorshunosligida ko'p va xo'p o'rganilgan. Biroq, To'ra Mirzayevning bu borada olib borgan tadqiqotlari nafaqat yurtimizda, balki turkiyalik olimlarning ham e'tirofini qozondi. Olim "Go'ro'g'li" turkum dostonlarining jonli ijrosi va yozma, toshbosma nusxalarini qiyosladi. Mazkur dostonlarning keng geografik makonga tarqalish sabablariga oydinlik kiritdi. Baxshi hamda qissaxon baxshi ijrosidagi doston matnidagi o'xshash va farqli jihatlarni ilmiy asosladi. Dostonning toshbosma nusxalarini, qissaxon baxshi Rahmatulla Yusuf o'g'ildan yozib olgan namunalarni nashr etib, kelgusi ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishlarini belgilab berdi. Uning rus tilida e'lon qilingan ko'plab tadqiqotlari, "Песня Булбуля", "Узбекская

народная поэзия" kabi kitoblari olim nomini xorijiy o'lkalarga tanitgan bo'lsa, "Энос и сказитель" nomli fundamental asari ustoz nomini yanada yuksaklarga ko'tardi.

Hodi Zarif haqida ustoz ko'p yozgan. Ustozga sodiqlikda, ilmida vorisiylikda To'ra aka katta bir ibrat maktabi yaratib ketdi. "Hodi Zarif suhbatlari" – bu, shunchaki ustoz haqida xotiralar emas. Balki o'zbek folklorining yuzaga kelish va taraqqiyot bosqichlari, folklorshunosligi tarixi haqidagi chuqur nazariy qarashlar ifodasidir.

Ustoz uzoq yillar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining direktori, Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti, so'ngra O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bosh maslahatchisi sifatida faoliyat yuritdi. Folklorshunoslik bo'yicha ilmiy seminar va kengashlarga rahbarlik qildi. Mamlakatimizda baxshichilik san'atiga, folklorga, madaniyat va san'atga bo'layotgan e'tibordan ruhanib ijod qildi. "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" ko'p jildligi nashr etilishiga bosh-qosh bo'ldi. "Alpomish", "Go'ro'g'li" va boshqa ko'plab sara doston variantlarini so'zboshi, izoh va lug'atlar bilan chop ettirdi. O'nlab tadqiqotlar, yuzlab maqolalarini ilmiy jamoatchilikka havola qildi.

O'ndan oshiq fan doktori, o'ttizdan ortiq fan nomzodi va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyalariga, davlat dasturlari asosida amalga oshirilgan yirik ilmiy loyihalarga rahbarlik qildi. Umri davomida mingga yaqin ilmiy maqola, yuzga yaqin kitoblar chop etdi.

Domla ko'p takrorlardi: "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin". To'ra aka ana shu qiyin yo'lni tanlagan, ilmi bilan elni tanitgan, insoniyligi bilan qalblarni zabt etgan edi. U o'z umri misolida bizga shunday saboq qoldirdi: ilm yuksaklikka yetaklaydi, ammo insonni ulug' qiladigan narsa – mehnat, halollik, samimiyat va odamiylikdir.

To'ra Mirzayev Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindoridir. "Do'stlik" va "Fidokorona xizmatlari uchun" ordenlari bilan taqdirlangan. Atoqli shoir Abdulla Oripov bir davrada To'ra aka haqida gapira turib, uni xalq zakosida toblangan, el nafasi bilan yashagan, soddaligida hikmat, kamtarligida ulug'vorlik yashiringan donishmand siymo sifatida vasf etgandi. Chindan ham, To'ra Mirzayev so'zi va amali bir, har ishda o'zining yuksak tashkilotchiligi va tashabbuskorligini namoyon etib, ilm tug'ini baland ko'targan ustoz edi.


Jabbor ESHONQULOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

TARIXGA YANGICHA NAZAR

Muallif xonlikning ijtimoiy-siyosiy, madaniy manzarasini yoritib, undan keyin adabiy meros tahliliga o'tadi. Bunday yondashuv kitobxonga davr manzarasini yaxlit tasavvur etish imkonini beradi. Kitobning "Xon adabiy merosining manbalari" faslida bizchaga yetib kelgan, shoir she'rlari saqlanib qolgan yetti adabiy manbaning to'liq ilmiy tavsifi berilgan. Tadqiqotchi har bir qo'lyozmani diqqat bilan o'rganib, ko'chirilish sanasini hamda saqlanib qolgan she'rlarning adadini aniq ko'rsatib, xonning ikki maktabini aniqlashga ham muvaffaq bo'lgan: "Demak, shu kunga qadar aniqlangan Xon adabiy merosi: 85 g'azal, 4 musaddas, 3 ruboiy, 1 fard va alohida 4 bayt. Jami 2307 misra she'r". Adabiy merosning janriy jihatdan xilmaxilligi shoir iqtidoridan darak beradi.

Xon o'z g'azallarida Fuzuliy adabiy merosidan ta'sirlanib, hatto lisoniy tarafdin salafiga ergashgan. Tadqiqotchi kitobning "Fuzuliyga ergashishmi, tenglashish..." faslida har ikki shoir she'rlarini izchil chog'ishtirib, javobiya g'azallarda Xon betakror g'azallar bitganini ko'rsatgan: "Ya'ni qaysidir o'rinlarda unga tenglashgan, hissiyatlarini yuqori pafos va yuksak badiiyat ila she'riy tizimga – fuzuliyona ohangga qo'ya olgan. Aytish mumkinki, ijodiy musobaqada o'zini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan".

Qo'qon adabiy muhitiga mansub G'oziy, Amiriy, Uvaysiy, Uzat, Qoriy, Muqimiy, Furqat, Muhsiniy kabi



shoirlar ham Fuzuliy g'azallariga muxammas bog'laganlar. Va bu holat ayni adabiy muhitda Fuzuliy ijodiga nisbatan ehtiyoj yuqori bo'lganidan dalolat. Bundan tashqari, Xon she'rlariga zamondosh hamda keyingi davrda yashagan Ogahiy, Tabiiy singari shoirlar muxammas bitganlar. Ko'rinib turibdiki, Muhammad Alixon adabiy muhitning yetakchi ijodkorlaridan biri bo'lgan.

Kitobda Xonning manbalardan aniqlangan adabiy merosi bir yerga jamlanib, qiyosiy tadqiq qilinib, ilk marotaba to'liq chop etilgan. O'quvchiga yengillik yaratish maqsadida har bir she'r ga lug'at ilova qilingan. Qo'lyozma matnidagi ayrim tushib qolgan so'zlar maxsus belgi bilan ko'rsatilgan. Shuningdek, kitobda foydalanilgan manbalar va Xon qurdirgan imoratlar suratlarini hamda farmon, muhrning ilova qilinishi davr haqida yaxlit tasavvur berishga ko'maklashadi.

Abdurasul ESHONBOBOYEV



“EL DESA NAVOIYNI...”

Boshlanishi 1-sahifada.

“Ko'klam butun dunyoda mart oyidan boshlansa, O'zbekistonga bahor fevral oyida – hazrat Navoiy tavalludi bilan kirib keladi”, degan tashbeh forum muhitiga o'z gacha ma'naviy kayfiyat bag'ishladi. Tadbir doirasida navoiyshunos olimlarni o'ylantirib kelayotgan masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida o'tkazilgan 11-an'anaviy “Alisher Navoiy va XXI asr” xalqaro konferensiyasi doirasida “Lison ut-tayr” dostonining italyan tiliga tarjimasi taq-

baytning nasriy bayonini erkin va aniq ifodalab berishlari lozim edi. Tanlov yakunida g'oliblar munosib taqdirlandi. Biroq tanlovning eng katta yutug'i moddiy mukofot emas, balki Navoiy merosini chuqur o'zlashtirgan, so'z qudratini his etgan bilimli va ma'naviy boy yoshlar avlodining kamol topayotganidir.

“Alisher Navoiy – so'z mulking sultoni” nomli videoroliklar tanlovi ham keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Unda yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan besh yuz nafardan ortiq yurtdoshlarimiz faol qatnashdi. Ushbu amaliy loyiha Navoiy merosini, ayniqsa, yosh avlod



Dilnavoz YUSUPOVA,
professor

O'zbekiston va Misr madaniy aloqalari uzoq tarixga egaligi, Buyuk ipak yo'li ikki o'lkani boy madaniy tarixida ma'naviy ko'priq vazifasini o'tagan, mumtoz shoirlarimiz, xususan, Alisher Navoiy asarlarida Misr faqat jug'rofiy nom emas, balki go'zallik, hikmat va donishmandlik ramzini ifodalab kelgani ta'kidlandi.

Universitet qoshidagi “Meros” kutubxonasi rahbarining ma'lumot berishicha, ziyo maskanida turkiy tildagi 15 mingdan ziyod qo'lyozma bo'lib, ularni matnshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish zarur va bu borada o'zbekistonlik olimlarning yordamlariga ehtiyoj bor.

Davra suhbatlari so'ngida Qohira davlat universitetida Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti markazini ochish bilan bog'liq kelishuvlarga erishildi.

15-fevral kuni ekspeditsiya a'zolari Saudiya Arabistonining Riyoz shahriga yo'l oldi. Podshoh Faysal nomidagi Islomni tadqiq qilish markazida o'zbekistonlik mehmonlarni doktor Yahyo ibn Junayd va Podshoh Faysal bin Abdulaziz al Saudning nabirasi malika Moha bint Muhammad al-Faysal xonim qabul qildi. Doktor Yahyo ibn Junaydning ta'kidlashicha, arab o'lkalari va Markaziy Osiyo davlatlari qadimdan o'zaro ijtimoiy-madaniy aloqada bo'lib, arab falsafasi tarixini Movarounnahr olimlarining asarlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Uchrashuvda bildirilgan Osiyo va Afrika xalqlari adabiyoti anjumanini, avvalgi an'anani qayta tiklagan holda, yana Toshkentda o'tkazish bilan bog'liq taklif yig'ilganlarda katta qiziqish uyg'otdi. Mezbonlarga Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari arab va urdu tillariga tarjima qilinishi va yaqin kunlarda nashr etilishi haqida ma'lumot berildi. Uchrashuv so'ngida Podshoh Faysal nomidagi Islomni tadqiq qilish markazida “Movarounnahrni o'rganish” bo'limi va O'zbekistondagi universitetlardan birida “Podshoh Faysal nomidagi kafedra”ni tashkil etish bo'yicha o'zaro kelishuvga erishildi.

Delegatsiya a'zolarining tashrifi Saudiya Arabistoni elixonasida o'zbek yoshlari bilan “Alisher Navoiy va adabiyot” mavzusidagi davra suhbatlari bilan yakun topdi. Ramazon oyi va Navoiy tavalludi uyg'unligi, o'zbekona dasturxon atrofidagi samimiy suhbat, shoir ruboiylarining sharhi – bularning barchasi yoshlar qalbidagi Vatanga muhabbatni yanada kuchaytirdi.

Ulug' shoir tavalludining 585 yilligi o'tayotgan 2026-yil hali ko'plab ma'naviy safarlarga boy bo'lishi kutilmoqda. Ilmiy anjumanlar, tarjimalar, yangi nashrlar va xalqaro hamkorliklar – bularning barchasi bir haqiqatni tasdiqlaydi: Alisher Navoiy merosi o't-mish emas, u doimo harakatdagi ma'naviy kuchdir. Shu ma'noda, jahon ichra yoyilgan shuhrat faqat shoirning emas, balki uni anglab, o'rganib, kelajakka yetkazayotgan millatning ham shuhratidir.



dim etildi. Taqdimotda tarjimon, Sapienza universiteti professori, islomshunos olim Marko de Branko, Italiyadagi “Sandro Teti” nashriyoti direktori Sandro Teti, Italiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Gvido de Sanktis va boshqalar qatnashib, Alisher Navoiy ijodi, jumladan, “Lison ut-tayr” dostonining jahon ma'naviy hayotida tutgan o'rni va tarjimaning amaliy ahamiyati haqida fikr yuritildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida o'tkazilgan “Alisher Navoiy va Sharq Renessansi” simpoziumida yuzdan ortiq ishtirokchining qariyb yarmini xorijlik olimlar tashkil etgani navoiyshunoslik global ilmiy sohaga aylanayotganini ko'rsatdi. Avstriya, Belgiya, Vengriya, Xitoy va Janubiy Koreyadan kelgan yosh tadqiqotchilar ma'ruzalari yangi ilmiy yo'nalishlarni namoyon qildi. “Temuriylar davridan yangi Renessansga qadar”, “Navoiy g'azallarining Usmonli turk she'riyatiga ta'siri”, “Alisher Navoiy she'rlarini qarodosh bo'lmagan tillarga tarjima qilishda tarjimon strategiyasi” kabi ma'ruzalar jamoatchilik e'tiborini tortdi.

Simpozium doirasida Alisher Navoiy asarlarining 100 jildligiga bag'ishlangan muhtasham loyiha (matn, nasriy bayon/ tabdil va lug'at)ning dastlabki 31 jildi – “Xamsa” dostonlari taqdim etildi. Bu loyiha buyuk shoir merosini tizimli o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish yo'lida muhim qadam sifatida baholandi.

Talaba yoshlar o'rtasida o'tkazilgan “Navoiy izdoshlari” nomli g'azalxonlik tanlovi milliy ma'naviyatimizga, xususan, ulug' mutafakkir ijodiga chuqur ehtirom va e'tiborning yorqin namunasi bo'ldi. Bu tanlov oddiy musobaqa emas, balki yoshlarning adabiy salohiyati, aqliy yetukligi va badiiy tafakkurini sinovdan o'tkazgan o'ziga xos ma'naviy imtihon sifatida yodda qoldi. Tanlov shartlari oson emas edi. Ishirokchilar Alisher Navoiy qalamiga mansub kamida 80 ta g'azalni mukammal yod olib, ularni aruz qoidalariga rioya qilgan holda ifodali o'qishlari, g'azallarda qo'llangan barcha so'z va iboralarining lug'aviy ma'nolarini izohlashlari, shuningdek, hakamlar tomonidan so'ralgan istalgan

ongiga singdirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Tanlov doirasida eng yosh ishtirokchi 3 yosh, eng keksa ishtirokchi esa 92 yosh ekani alohida e'tiborga molik. Bu holat bugungi globallashuv sharoitida Navoiy ijodi faqat bir avlodga emas, balki barcha yoshdagilar uchun birdek ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Ana shunday tanlov va loyihalar orqali buyuk ajdodimiz nafaqat tarixiy shaxs, balki zamonaviy hayotimizga hamohang mutafakkir sifatida xalqimizga yanada yaqinlashib bormoqda. Eng muhimi, Navoiy ijodi orqali yoshlar insonparvarlik, adolat, sabr, muhabbat va vatanparvarlik kabi yuksak qadriyatlarini qalban his qilmoqda.

XORIJGA ILMIY EKSPEDITSIYA

Shu yil 11–18-fevral kunlari Alisher Navoiy xalqaro jamoat fondi tashabbusi va homiyligida Misr Arab Respublikasi va Saudiya Arabistoniga ilmiy ekspeditsiya tashkil etildi. Bundan maqsad Alisher Navoiy asarlarini arab dunyosida targ'ib qilish, yangi qo'lyozmalarni izlab topish va tarjima ishlarini rivojlantirishdan iborat edi.

Ekspeditsiya a'zolari ilk tashrif buyurgan maskan Qohira shahridagi “Ilm” nomi bilan faoliyat yurituvchi Islom va tasavvufiy tadqiqotlar ilmiy markazi bo'ldi. Markaz rahbari Abdul'otiy Muhyi Ahmad ash-Sharqoviyning ma'lumot berishicha, bu yerda deyarli butun dunyoda saqlanayotgan qo'lyozmalarning elektronlashtirilgan katalogi bor. Ular orasida Markaziy Osiyo mutafakkirlari va Alisher Navoiy qalamiga mansub noyob qo'lyozmalarning ko'p adadni tashkil etishi ikki tomonlama qo'shma loyihalarni amalga oshirish zaruratini kun tartibiga qo'yadi. O'zaro kelishuv natijasida Alisher Navoiy xalqaro jamoat fondi xazinasi bir necha ana shunday qo'lyozma asarlarning faksimel nusxasi bilan boyidi.

Delegatsiya a'zolari Qohira davlat universitetidagi davra suhbatida qatnashdi. Universitetning ilmiy ishlar bo'yicha prorektori Mahmud Said boshchiligidagi bo'lib o'tgan do'stona muloqot chog'ida

DURDONA



Zuhriddin ISOMIDDINOV

Biz yetti asr muqaddam yozilgan “Yuz so'z” she'riy asari haqida so'z yuritmoqchimiz. Ushbu qasidani 1368–1398-yillardagi Xitoy imperatori Chju Yuanchjan (1328–1398) yozgan. U islom diniga xayrixo nazar bilan qaragan hukmdor bo'lgan. Shoyoni hayratki, shu borada olib borgan ozgina izlanish davomida Chju Yuanchjan bilan deyarli tengdosh bo'lgan Amir Temur orasida juda ko'p mushtarakliklar borligini aniqladik.

Chunonchi, Amir Temur undan atigi sakkiz yosh kichik bo'lgan, ikkovi ham deyarli teng – yetmish yildan umr ko'rishgan. Chju Yuanchjan ham, Amir Temur ham shohlar oilasidan chiqmagan, balki oddiyroq oila farzandi edi. Ular mardlik va tadbirkorlik orqali nafaqat mamlakat hukmdori bo'lgan, balki imperiya tuza olishgan. Chju Yuanchjan asos solgan Min imperiyasi 1368–1644-yillarda (276 yil) saltanat surgan bo'lsa, Temuriylar imperiyasi (Boburiylar bilan qo'shib hisoblaganda) 1370–1857-yillarda (487 yil) hukmronlik qilgan. Ikki ham siyosiy-harbiy harakatini mamlakatni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod etishdan boshlagan.

Chju Yuanchjan mo'g'ullarga qarshi kurashni “Qizil peshonabog'lilar” harakatiga qo'shilgan holda boshlagan bo'lsa, Amir Temurning xalq orasida mo'g'ul bosqinchilariga qarshi stixiyali ravishda kelib chiqqan sarbadorlar harakatiga qo'shilishi ham shu tarzda yuz bergan. Chju Yuanchjan “Qizil peshonabog'lilar” harakati rahbarlari bilan itxtilof kelib chiqqach, ularni mahv etgan. Amir Temurning sarbadorlar harakati yetakchilari bilan munosabati ham shu yo'sinda yakun topgan.

Chju Yuanchjan markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash uchun “pochta bekati tizimi”ga katta e'tibor bergan. Pochta bo'limi nafaqat farmonlar yuborish, balki keng hududlarni nazorat qilish, amaldorlarni turli ishlar bilan har tomonga yuborish va soliqlarni yetkazib berish uchun ham xizmat qilgan, bu uning mo'g'ullar hukmronligidan keyin mamlakatni qayta qurish siyosatining asosiy jihati bo'lgan.

Amir Temurda ham shunday. Tarix manbalarida yozilishicha, “o'sha paytda boshboshdoqlik va adolatsizliklar kuchli bo'lib, bu yerlardan o'tib-qaytuvchi savdogarlar va hojilar qiyinchilikka uchrar, bu tartibsizliklar tashqi iqtisodiy va diplomatik aloqalarning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Amir Temur bu ahvolni tahlil qilib, o'sha davr sahnasini juda yaxshi ko'ra olgan va yo'llarning tinchligini, ularning ishchanligini ta'minlashni, qurish va qayta ta'mirlash, yagona kommunikatsiya tizimlarining xavfsizligini kuchaytirishga kirishgan”.

Har ikki hukmdor mardlik va dovyuraklikka alohida e'tibor bergan. Chju Yuanchjan qo'shinida millati xitoy,



o'zi musulmon bo'lgan o'nga yaqin lashkarboshi xizmat qilardi. Qolaversa, rafiqasi musulmon oilasidan chiqqan, uning o'zi ham bir mahal musulmon isyonchilar guruhida qatnashgan. O'z zamonasining amiralmo'mini bo'lgan Amir Temur esa, olimlarning yozishicha, Qur'oni Karimni yodlagina qolmay, balki uning ma'nosini juda yaxshi bilar, boshqa ilmlarni ham puxta egallagan edi. Ayniqsa, fiqh ilmidagi shuhrat qozongan edi. Bu esa, o'z navbatida, uning obro'siga obro' qo'shar, xalq ommasining unga bo'lgan izzat-ehtiromini yana ham orttirardi.

Amir Temur, garchi shoir bo'lmasa-da, she'riyatni juda qadrlagan, ko'p asarlarni yod bilgan va o'zaro suhbatlarda nazmiy misol keltirishga mohir bo'lgan. Alisher Navoiy: “Temur Ko'ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqeda o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor”, deya ta'riflagan. Tarixda eng ko'p shoir va boshqa san'at ahllari aynan Amir Temur zamonida yashab o'tgani ham shuni tasdiqlaydi.

Chju Yuanchjan esa shoir edi. Uning “Yuz so'z” qasidasi Alloh taolo, islom dini va Muhammad alayhissalom madhiga bag'ishlangan. U mazkur qasidani Nankin, Yunnan, Guandun va Futszyan shaharlarida o'zi qurdirgan masjidlar devoriga yozib osib qo'yishni buyurgan. Hukmdorning islomga moyilligi ko'p odamlarning shu shaharlarga ko'chib borib yashab qolishiga sabab bo'lgan.

Axir, o'zingiz o'ylang, bundan yetti asr muqaddam Chin mamlakatida, buning ustiga, biror diplomat yo shoir emas, aynan buyuk imperatorning o'zi muqaddas islom dinini, sarvari koinot Muhammad alayhissalomni madh etib qasida bitishi tushimizga ham kirmaydigan hayratlanarli hodisa-ku!

Min sulolasining yangi imperatori Xonbaliqni imperiyaning yangi poytaxti deb e'lon qildi. Bugungi kunda Xonbaliq Pekin nomi bilan tanilgan. Bu imperatorning hukmronligi ko'p jihatdan inqilobiy bo'lgan. U Xitoyda yangi yerlarni obod qilish va qishloq xo'jaligini rivojlantirishni rag'batlantirdi, soliqlarni kamaytirdi, siyosiy korruptsiyani bostirdi va dehqonlar huquqini himoya qiluvchi qonunlarni joriy qildi. Qul tutishni taqiqladi va zodagonlarga tegishli yerlarni kambag'allar orasida qayta taqsimladi. Imperator Sitszin va Nanjingda, janubiy Yunnan, Fujian va Guanchjou hududlarida masjidlar qurdi.

Shu shahanshoh ijod qilgan qasidaning har bir misrasi to'rt so'z (iyeroglif) va to'rt bo'g'indan iborat. Hatto hozir ham Xitoydagi ayrim masjidlarda Rasulullohga bag'ishlangan ushbu qasida osig'liq turadi.

Asliyat bejiz “Yuz so'z” deyilmaganidan kelib chiqib, biz ham uni yuz so'z bilan tajassum qilishga, qolaversa, vazn hamda qo'fiya bilan ta'minlagan holda, masnaviy shakliga solib o'g'irishga urindik.

YUZ SO'Z

**Lavhimahfuz uzra bitilgach oti,
Xoliq yaratmishdir bul koinotti.**

**Hazrati payambar – keltirmishki din,
Mag'rib o'lkasida tug'mish onodin.**

**O'ttiz pora Kitob angadir vahiy,
Biron sirdan g'ofil ermas dargahi.**

**Yuz o'n to'rt ming nabiyi sultonidir,
Behisob valiyi hukmonidir.**

**Xalloqi olamga egib boshini,
Iltijo aylardi to'kib yoshini.**

**Besh mahal yukunib o'qirkan namoz,
Bayon aylayurdi dilda ne niyoz.**

**Hojatmandlar arzin ko'ngliga tugib,
Duo qilar Allohimga yukunib:**

**“Yorab, tilagimdan o'zingsan voqif,
Miskinlarni qo'lla, holiga boqib.**

**Jonlar senikidir, ko'ngillar – tobe,
Rahm qil alarga, etma itobe.**

**Yorabbulolamin, olamni asra,
Gunahkor, benavo odamni asra.**

**Jaholatdan qochsak, Senga yeturmiz,
Islomning bermasang, qayga keturmiz?”**

**Muhammad – podshohlarning valiysi,
Valiylarning shohi, eng avvaliysi...**

“Men dunyo tarixini o'qib shunday xulosaga keldim: dunyo podshohlari to'plagan jami saltanat-u boylik, qasrlar-u saroylar Muhammad (alayhissalom) ning yamoq yaktagiga ham arzimas ekan, – deb yozgan edi buyuk olmon shoiri Gyote. – Biz, Yevropa millatlari, madaniy imkonimiz yuqori bo'lishiga qaramay, Muhammad so'ngi pog'onasiga qadar chiqqan zinning birinchi pillapoyasidamiz, xolos. Hech shubha yo'qki, biron kimsa undan yuqoriroqqa o'ta olmaydi”.

E'tiboringizga havola etilgan “Yuz so'z” qasidasini ona tilimizga o'g'irish chog'i, har bir misra ustida mushohada qilaraq, kamina “Imperator Chju Yuanchjan ushbu qasidada Sarvari koinotga Gyotening ta'rifidan ham yuksakroq baho bergan ekan”, degan xulosaga keldim. Muborak Ramazon kunlaridagi bunday sezimlar kishi dilini xushnud etadi, albatta.

“Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytgon emas... olti masnaviy kitob nazm qilibtur, besh “Xamsa” javobida, yana bir “Mantiq ut-tayr” vaznida “Lison ut-tayr” otliq...”

Zahiriddin Muhammad BOBUR





OGOHLIK

“RAQAMLI HASHAMAT” TUZOG‘I

1788-yili Fransiyada kuchli qurg‘oqchilik va do‘l yog‘ishi natijasida hosil nobud bo‘ladi. Non narxi keskin ko‘tarilib, oddiy xalq ocharchilikka yuz tutadi. Ayni shu og‘ir pallada qirolicha Mariya-Antuanetta va saroy a‘yonlarining Versaldagi dabdabali hayoti haqidagi xabarlar aksar varaqa va gazetalarda bo‘rtirilgan holda tarqala boshlaydi. Odamlarda kuchli norozilik kayfiyati uyg‘onadi.

Mazkur inqilobda axborot odamlarni ko‘chaga olib chiqqan bo‘lsa, bugungi soxta hashamat kontenti odamlarni o‘z ichiga, depressiyaga qamaydi. Har ikki holatda ham media realikni buzib ko‘rsatish orqali jamiyatning barqarorligiga daxl qiluvchi qarama-qarshilikni yuzaga keltirishini ko‘rish mumkin.

Bugungi ziddiyat esa ochlikdan ham kuchli, u insonning ong-tafakkuri, ruhiyatini majruh qilmoqda.

INTERNETGA QURBON BO‘LAYOTGAN UMLAR

Globalashgan davrda “axborot xuruj”i shunchaki so‘z emas, balki raqamlarda aks etayotgan xavfdir. Tadqiqotchilar kuzatuv va global tendensiyalarga tayansak, ayni paytda yoshlar kuniga o‘rtacha 4 soatdan 6 soatgacha vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazmoqda. Agar inson 60 yil yashasa va har kuni 5 soatni ijtimoiy tarmoqqa sarflasa, u hayotining qariyb 12 yilini virtual dunyoga bag‘ishlagan bo‘ladi.

Bu vaqt davomida miya tinimsiz ravishda “muvaffaqiyatli hayot” manipulyatsiyasi ostida bo‘lib, tanqidiy fikrlash qobiliyatini so‘ndiradi. Ijtimoiy tarmoqlardagi “layk”lar va cheksiz “skroi” (lentani varaqlash) miyaning mukofotlash markazini qo‘zg‘atadi. Garvard universiteti tadqiqotchilarining aniqlashicha, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish miyaning xuddi qimor o‘yinlari yoki narkotik moddalar ta‘sirida qo‘zg‘aladigan qismlarini ishga tushiradi.

Miya doimiy ravishda tayyor, qisqa va vizual jozibador ma‘lumotni qabul qilavergach, u “chaynamasdan, to‘g‘ridan to‘g‘ri yutish” rejimiga o‘tadi. Ya‘ni, xabarni chuqur tahlil qilish susayadi. “Muvaffaqiyatli hayot” manipulyatsiyasi va tanqidiy fikrlashning so‘nishi qanchalik xavfli ekanini 2016-yildagi “Cambridge Analytica” voqeari butun dunyoga isbotladi. Unda millionlab foydalanuvchilarning psixologik portretlari – qiziqishlari,



qo‘ruqlari, kognitiv zaifliklari o‘rganilib, ularga individual tarzda “axborot xuruj”i uyushtirilgan. Kuzatuvchilar o‘zlarini erkin qaror qabul qilyapman, deb o‘ylashdi, aslida, ular algoritmlar tomonidan boshqarilgan edi. Bu voqea “axborot xuruj”i nafaqat shaxsiy depressiyaga olib keluvchi, balki davlatlar taqdirini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan kuchga egaligini ko‘rsatdi.

“BIZNI KEMIRUVCHI ILLATLAR”NING ZAMONAVIY SHAKLI

XIX asr oxiri va XX asr boshida Turkiston chor mustamlakasi ostida bo‘lgan bir paytda, xalq o‘zining oxirgi sarmoyasini dabdabali to‘ylarga sarflar edi. Jadidlar buni millatning kelajagini boy berish, deb hisoblashgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1915-yilda yozgan “Bizni kemiruvchi illatlar” nomli mashhur maqolasida to‘y va marosimlardagi isrofgarchilikni millatni ichidan yemiruvchi asosiy sabab, deb ko‘rsatadi.

Anglab turganingizdek, bugun biz tarixdan xulosa chiqarish o‘rniga, yangi-yangi “urf”larni o‘ylab topyapmiz. Ijtimoiy tarmoqlar esa bu borada targ‘ibot vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Havas uchun qarzlari, kreditlar olinayotgan bo‘lsa, hasad bilan ongimiz va qalbmizni o‘ldiryapmiz. Jamiyatning eng nozik nuqtalari bo‘lmish oila va qadriyatlariga darz ketmoqda.

“Odamlar shuncha pulni qayerdan o‘lyapti-a? Biz ham o‘sha davlatlarni ko‘ramizmi?” degan gaplar kundalik muhokamaga aylangan.

Shunchaki jo‘n bo‘lib ko‘ringan bu taajjublar zamirida kuzatuvchining moddiy imkoniyatlari va oilaviy ahvoli turibdi.

Ko‘plab yosh kelin-kuyovlar o‘z turmushini instagradagi “ideal juftliklar” bilan solishtirib, turmush o‘rtog‘ining oddiy mehnati va topganini kamsita boshlaydi. “Falonchi xotiniga har kuni qimmatbaho narsalar sovg‘a qilar ekan”, degan soxta andozalarga ergashib, oila mustahkamligini yemira boshlaydi. Ma‘naviy yaqinlik, qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro ham-jihatlik o‘rniga, yoshlar vizual ko‘rinishni – qayerda ovqatlanish, qanday kiyinishni o‘ylaydi. Natija esa hammaga ma‘lum.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, bugungi kundagi ajrimlarning salmoqli qismi aynan “bir-birini tushunmaslik” deb ko‘rsatilsa-da, uning zamirida ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlar yaratgan “baland orzular” va real hayot o‘rtasidagi to‘qnashuv yotadi. Bu – zamonaviy axborot urushining eng ayanchli g‘alabasi: jamiyatni ichidan, oiladan turib parchalashdir.

Ma‘rifatparvar jadidimiz Abdurauf Fitrat oilaning iqtisodiy asoslari mustahkam bo‘lishi kerakligini, qarzdorlik asosiga qurilgan dabdaba bu muqaddas qo‘rg‘onni halokatga yetaklashini ilmiy asoslab bergan. “Qarz olib to‘y qilmoq – o‘z oilasining poydevoriga o‘t qo‘ymoqdir”, deb yozgan. Uning fikricha, kishi “Odamlar nima deydi?” degan soxta mulohazalar uchun qarzga botsa, u nafaqat o‘zining, balki ayoli va farzandlarining ham kelajagini garovga qo‘yadi.

guruhbozlikni yo‘qotishni rejalashtirmoqda.

Gap sud boshqaruvi kengashi a‘zolarini tasodifiy tanlash – lotereya (sortitsiya) usuli orqali aniqlash haqida bormoqda.



Ma‘lum qilinishicha, ushbu shov-shuvli islohot 22-23-mart kunlari umumxalq referendumiga qo‘yiladi. Bu holat bosh vazir Jorja Melonining konservativ hukumatini mamlakatdagi aksariyat sudya va prokurorlarga qarshi qo‘ymoqda.

QAHVA KUNI
BMT Bosh Assambleyasi 1-oktyabrni Xalqaro qahva kuni deb e‘lon qildi. Rezolyutsiya Nyu-Yorkda tasdiqlandi.



Ijtimoiy tarmoqlarda erning ayoliga mashina sovg‘a qilishi yoki farzandlarning otasiga ana shunday tuha berishi bilan bog‘liq soxta marosimlar ko‘plab uchramoqda. Aslida, ular bu dabdabani auditoriya yig‘ish, “layk” va izoh to‘plash, reklama beruvchilarning e‘tiboriga tushish maqsadida uyushtiradi. Kuzatuvchi esa unga havas qilib, qiynalib bo‘lsa-da, bu marosimni real hayotda amalga oshirishga urinadi. Achinarli jihati, bugungi media-makon tushunchasida hashamat andishasizlarcha boylik namoyishiga, riyoga aylanib qoldi.

Internet foydalanuvchilari dabdabali kontentlarni maroq bilan kuzatganlari sari, ularga ana shunday mazmundagi materiallar kelishda davom etaveradi. Xavfning birinchi tomoni internetga mutelik bo‘lsa, ikkinchi tarafi, bu holat jamiyatdagi maromiylikka salbiy ta‘sir o‘tkazadi. Eng qimmat modeldagi telefon, eng so‘nggi rusumdagi avtomobil... ular ana shunday davom etadi. Natijada odam molparastlik atalgan yugurish yo‘lagiga tushib qoladi. U qancha ko‘p yugurmasin, aslida, o‘z joyida turaveradi. Uning moddiyati o‘zgarishi mumkindir, lekin ma‘naviyati tubanlashib boradi.

NAJOT YO‘LI QAYERDA?

Ushbu manipulyatsiya va xurujlardan himoyalash uchun har birimiz o‘zimizda ma‘naviy immunitetni shakllantirishimiz zarur. Bunda haftada kamida bir kunni ijtimoiy tarmoqlarsiz o‘tkazib, diqqatimizni kitob mutolaasiga yoki yaqinlarimiz bilan jonli muloqotga qaratish – oqilona yo‘l.

Har qanday hashamatli suzjetga ega kontentni ko‘rganda, o‘zimizga: “Bu reklama emasmi? Bu rasmlar orqada qanday real mehnat yoki yolg‘on turibdi?” degan savolni beraylik. O‘zimizni boshqalar bilan emas, o‘z imkoniyatimiz bilan solishtirishimiz sog‘lig‘imiz va rivojlanishimiz garovidir.

Axborot xuruj shunchaki tashqi tahdid emas, balki ongimizga tobora chuqur kirib borayotgan virusdir. Biz jadid bobolarimiz ogohlantirib ayrgan fikrlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, dabdabani emas, ma‘rifatni tanlashimiz shart. Unutmaslik kerakki, ijtimoiy tarmoqlar hayotimizni yorituvchi chiroq ham, kuydiruvchi olov ham bo‘lishi mumkin. Tanlov o‘z qo‘limizda.

Haqiqiy baxt ekranda aks etmaydi, u qalbdagi qanoat va yaqinlar bilan o‘tkazilgan jonli daqiqlarda yashaydi.

Shohista YUNUSALIYEVA,
Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi xodimi

BMT axborot xizmati ma‘lumotlariga ko‘ra, hujjatga Belarus, Qirg‘iziston, Turkmaniston va O‘zbekiston kabi o‘nlab davlatlar hammualliflik qilgan.

Hujjatda qahva ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasining bir qator barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, jumladan, ochlikka qarshi kurashish, o‘ta qashshoqlikni kamaytirish, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, munosib mehnat va iqtisodiy o‘rta qismga ko‘maklashishga qo‘shgan hissi ta‘kidlangan.

POYEZD QATNOVI TIKLANDI



Xitoy va KXDR o‘rtasidagi yo‘lovchi poyezdlari qatnovi 12-martdan qayta tiklanadi. Transport yo‘li 2019-yilda boshlangan pandemiya sababli olti yil davomida to‘xtab qolgan edi. Bu haqda BBC xabar berdi.

Xitoy temir yo‘llari ma‘lumotiga ko‘ra, Pekin-Pxenyang yo‘nalishidagi poyezdlar haftasiga to‘rt marta harakatlanadi. Dandun (chegara shahri) va Pxenyang o‘rtasidagi qatnovlar esa har kuni amalga oshiriladi.

OLAM OLIMI



Jeffri XINTON

Sun‘iy intellekt “otasi” sifatida tanilgan nobelchi

BIOGRAFIYASI

1947-yil 6-dekabrda Londonda tug‘ilgan. Buyuk Britaniya va Kanada fuqarosi. Kembrij va Edinburg universitetida o‘qigan. U o‘tgan asrning 80-yillaridayoq ko‘pchilik shubha bilan qaragan neyron tarmoqlari g‘oyasiga ishongan. Olim o‘z faoliyati davomida sun‘iy intellekt (SI), neyron tarmoqlar sohasida ilmiy izlanishlar olib borib, bu sohadagi eng mashhur tadqiqotchilardan biriga aylandi. Noodatiy algoritmlarni ommalashtirib, zamonaviy sun‘iy intellekt (masalan, ChatGPT) ishlash tamoyillariga asos solgan.

ILMIY TADQIQOTLARI

Olim sun‘iy intellekt sohasida qator muhim texnologiyalar va nazariy g‘oyalarni rivojlantirgan. Uning asosiy ilmiy ishlari quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi: sun‘iy neyron tarmoqlar, mashinali o‘rganish, “Backpropagation” algoritmini keng qo‘llash, “Boltzmann Machine” modeli, “Deep Learning” usullari.

2012-yilda yaratilgan “AlexNet!” modeli tasvirni tanish texnologiyasida katta ilmiy burilish yasadi. Bu model kompyuterlar tomonidan tasvirlarni insonga yaqin darajada aniqlik bilan tahlil qilish imkoniyatini yaratdi.

XALQARO E‘TIROF

Jeffri Xinton SI sohasiga qo‘shgan ulkan hissi uchun qator nufuzli mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Jumladan, 2018-yilda u kompyuter fanlari sohasidagi eng yuqori mukofotlardan biri hisoblangan “Turing Award”ni qo‘lga kiritgan. Shu sababli, u ko‘pincha “AIning otasi” deb ataladi.

2024-yilda Jeffri Xinton va Jon Xopfild sun‘iy neyron tarmoqlar orqali mashinali o‘rganishni rivojlantirgan fundamental kashfiyotlari uchun fizika bo‘yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Bu mukofot sun‘iy intellektning nazariy asoslarini yaratish va neyron tarmoqlar orqali ma‘lumotlarni qayta ishlash usullarini rivojlantirishdagi ulkan ilmiy hissi uchun berilgan.

OGOHLANTIRISH

2023-yilda olim “Google” kompaniyasidagi faoliyatini yakunlab, sun‘iy intellektning ehtimoliy xavflari haqida ochiq fikr bildirishni boshladi. Uning fikriga ko‘ra, kelajakda SI texnologiyalari quyidagi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin:

SI insondan aqlliyoq bo‘lib ketishi mumkin. Bu esa uni nazorat qilishni murakkablashtiradi.

Yolg‘on ma‘lumotlar tarqalishi. SI yordamida ishonchli ko‘rinadigan matn, rasm va videolar yaratish mumkin. Bu esa feyk xabarlar va manipulyatsiyalar xavfini oshiradi.

Ish o‘rinlarining kamayishi. Kelajakda qator kasblar avtomatlashishi mumkin. Masalan, ofis ishlari, tarjima, ba‘zi dasturlash ishlari, xizmat ko‘rsatish sohalari. Bu esa mehnat bozoriga ta‘sir qiladi.

Harbiy sohada qo‘llanishi. SI texnologiyalari qurol-yarog‘ tizimlarida ishlatilsa, bu global xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

OLIMNING POZITSIYASI

Jeffri Xinton sun‘iy intellektni rivojlantirishni to‘xtatish kerak, deb hisoblamaydi. Aksincha, u SI texnologiyalarini ehtiyotkorlik bilan rivojlantirish, xalqaro qonunlar va nazorat mexanizmlarini joriy qilish, olimlar, davlatlar va texnologik kompaniyalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirishni muhim deb biladi.

Olimning fikricha, insonlar sun‘iy intellektdan qo‘rqmasligi, balki uni mas‘uliyat bilan boshqarishi kerak.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

JAHON AYVONIDA

REKORD YANGILANDI

2026-yil uchun Forbes tomonidan e‘lon qilingan eng boy insonlar ro‘yxati tarixiy rekordlarni yangiladi. Bu yil dunyoda milliarderlar soni 3 ming 428 nafarga yetdi, ularning jami boyligi esa 20,1 trillion dollarni tashkil etmoqda.



Tesla va SpaceX egasi Ilon Mask ketma-ket ikkinchi yil Forbes talqiniga ko‘ra reytingda birinchi o‘rinni egalladi. Uning boyligi 839 milliard dollarga baholanmoqda. Keyingi o‘rinlarni Google asoschilaridan biri Larri Peyj va sherigi Sergey Brin egalladi. Shu bilan birga, Amazon asoschisi Jeff Bezos 2016-yildan beri ilk bor kuchli uchlikka kira olmay, to‘rtinchi o‘rinni band etdi.



O‘QITUVCHILARGA LITSENZIYA BERILADI

Qozog‘iston Ta‘lim vazirligi o‘qituvchilariga “ChatGPT edu” tizimidan foydalanish uchun litsenziyalar ajratmoqda. Bu haqda vazirlik rasmiy sahifasida ma‘lum qilindi.

Dastlab 100 mingta litsenziya taqdim etiladi, yil oxirigacha yana 100 ming o‘qituvchi ushbu imkoniyatga ega bo‘ladi. Ajratilgan litsenziyalar ta‘lim bosqichlari bo‘yicha taqsimlanadi. Jumladan, maktabgacha ta‘lim muassasalari uchun 5 mingta, maktablar uchun 85 mingta va kollejlar uchun 10 mingta.

Loyiha doirasida o‘qituvchilar sun‘iy intellekt yordamida dars rejalari tuzishi, topshiriq va testlar yaratishi hamda o‘quv materiallarini turli yoshdagi o‘quvchilar uchun uch tilda moslashtirishi mumkin bo‘ladi.

SUDYALAR LOTEREYASI

Italiya hukumati qadimgi Rim va Uyg‘onish davri Florensiyasiga xos bo‘lgan an‘anani qayta tiklash orqali sud tizimidagi korrupsiya va siyosiy



MILLAT FIDOYLARI

O'LIMGA TENG HUKM

Xalqimiz keksalarni jamiyatning ma'naviy tayanchi, tarixiy xotirani saqlovchi avlod sifatida qadrlaydi. Totalitar tuzum hukmronlik qilgan mudhish davrda bu qadriyatlar inobatga olinmay, yoshi ulug', katta hayot tajribasiga ega insonlar ham siyosiy gumon va ayblovlar girdobiga tortilib ketdi. Qahramonimiz – Sharif Yusufboyev 1870-yili Toshkent shahrida tug'ilgan, shaharning Samarqand darvoza ko'chasida istiqomat qilgan. Jamiyatda obro' qozongan huquqshunos. Savdo ishlari bilan tirikchilik qilgan va mahalla hayotida nuroniy sifatida hurmat topgan. Ammo u keksaligiga qaramay, qatag'on qurboniga aylangan edi.



Bunga qadar esa 1918-yil oxiridayoq Osipov rahbarligida sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borish maqsadida Muvaqqat qo'mita tashkil etilgan edi. Qo'zg'olon 1919-yil 18-yanvardan 19-yanvargacha o'tar kechasi Osipov buyrug'i bilan boshlanib, Turkiston ASSR Markaziy ijroiya qo'mitasi raisi V.Votinsev, Xalq komissarlari soveti raisi V.Figelskiy, Favqulodda komissiya raisi I.Fomenko, Toshkent soveti raisi N.Shumilov hamda boshqa bir qator komissarlar otib tashlandi. Qisqa vaqt ichida Toshkent shahri deyarli to'liq qo'zg'olonchilar qo'lga o'tdi. Biroq ko'p o'tmay, isyon Qo'qon, Samarqand va Perovsk shaharlaridan chaqirilgan qizil askarlar otryadlari yordamida bostirildi.

Sovet hokimiyati ushbu voqeadan so'ng rejimdan norozi ko'plab kishilarga nisbatan keng qamrovli terror va qatag'onni boshladi.

Partiya va sovet idoralari "tozalash" ishlari avj oldi. Aholining turli qatlamlariga mansub ko'plab yurtodoshlarimiz, jumladan, Sharif Yusufboyev ham ta'qib va jazoga duchor etildi.

Toshkent XIX asrning oxiri – XX asrboshlarida Turkiston o'lkasining yirik ma'muriy va iqtisodiy markazlaridan biri edi. Jadid ziyolilari jamiyatni ma'rifat, qonun ustuvorligi va zamonaviy bilimlar asosida isloh qilish g'oyasini ilgari surishardi. Yusufboyevning ham huquq sohasida faoliyatini davom ettirish, keyinchalik savdo ishlari bilan shug'ullanishi uni Toshkentning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog'lab qo'ygandi. Biroq tarixning burlish nuqtalari ko'plab insonlar kabi uning taqdiriga ham ta'sir ko'rsatdi. Inqilob va hokimiyat almashinuvi natijasida huquq tizimi tubdan o'zgarib ketdi. Yangi siyosiy sharoitda Yusufboyev avvalgi kasbiy faoliyatini davom ettira olmadi va tirikchilik tashvishi bilan savdo ishlari bel bog'ladi.

Afsuski, inqilobdan keyin shahar hayotida faol ishtirok etgan advokatlar, savdogar-u mulkdorlar shubhali toifaga aylandi-qoldi. Mahalla va saylov yig'ilishlarida odamlarning ijtimoiy kelib chiqishi tekshirildi. Shunday surishtiruvlar 1927-yilda Sharif

Yusufboyev taqdiriga ham ta'sir qilib, u saylov huquqidan mahrum etildi. Bu qaror uning fuqarolik huquqlarini cheklabgina qolmay, bora-bora hukumat idoralari nazdida "ishonchsiz shaxslar" ro'yxatiga tashib qolishiga sabab bo'ldi.

Ko'pni ko'rgan, hayot tajribasiga ega insonlar o'zbek jamiyatida azaldan alohida hurmatga sazovor bo'lib kelgan. Mahalla hayotida ham nuroniylar maslahatiga quloq tutish, ularning so'ziga e'tibor qaratish odatiy hol edi. Sharif Yusufboyev ham mahallada ana shunday obro'ga ega kishilardan sanalgan. Shu bois, 1934-yildan 1937-yilning oktyabrighacha u Kuybishev mahallasidagi masjidda imomlik vazifasini bajarib turdi. Bu lavozimni u rasman tayinlangan imom sifatida emas, balki masjidda doimiy imom bo'lmagani sababli, mahalla ahli iltimosi bilan vaqtincha zimmasiga olgan edi. Keyinchalik tergovda bu haqda uning o'zi ham ta'kidlaydi.

Masjid atrofida faoliyat yuritgan, mahalla ahli orasida obro' qozongan insonlar 1930-yillar o'talarida tez-tez tekshiruvlarga duch keldi. Natijada Sharif Yusufboyev ham "nazarga tushib", oxir-oqibat, 1938-yil 23-fevral kuni 72 yoshida hibsga olindi. Uni O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi xodimlari Toshkent turmasiga olib ketishdi. Tergov materiallarida u Toshkentdagi so'l eserlar tashkiloti bilan aloqada bo'lgan, degan gumonlar ilgari surildi. Bundan tashqari, 1919-yilda shaharda yuz bergan Osipov qo'zg'oloni bilan bog'liq ayblovlar ham qo'yildi. Uning turli davrlarga oid faoliyati shu tariqa o'zaro bog'lab talqin qilinib, tergov ishini asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirildi.

Unga "Sho'royi Islom" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi shuningdek, saylovchilar yig'iniida SSSR Konstitutsiyasi va saylov tizimi haqida tanqidli fikrlar bildirgan, degan ayblar ham qo'yildi. Bu ayblovlar aksariyat guvohlar ko'rsatmalari va chaquv xatlari asosida tuzilgan. Ayblanuvchi



Rustambek SHAMSUTDINOV, tarix fanlari doktori, professor


uchun bunday sharoitda o'zini himoya qilish amalda juda mushkul edi. Kexsa insonning tergovda na huquqiy yordamga tayanishi, na bo'honlarga munosib tarzda javob qaytarish imkoniyati qolmagan edi.

Sharif Yusufboyev 1938-yil 5-aprel kuni O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining qarori bilan 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilindi, bu hukm uning uchun o'lim jazosi bilan barobar edi.

Oila boshining achchiq qismati qolganlarga ham og'ir zarba bo'ldi. Ayniqsa, turmush o'rtog'i Oysha Husanova bu adolatsizlikka qarshi ko'p kurashdi. Sobiq ittifoq bosh prokurori nomiga shikoyat arizasi yozib, turmush o'rtog'ining ishini qayta ko'rib chiqishni so'radi. Murojaat matnida kexsa ayolning dard-u iztirobi yaqqol seziladi. "O'zim kexsa o'zbek ayoli bo'lib, boshdan kechirganlarim menga katta ma'naviy zarba berdi, sog'ligim butunlay izdan chiqmoqda. Butun ishonchim bilan ayta olamanki, mening kexsa erim hech qachon ijtimoiy xavfli shaxs bo'lmagan va bo'lmaydi ham", deydi u adolat talab qilib. Biroq oradan bir yil o'tgach, 1940-yil 13-aprelda qabul qilingan qaror bilan Sharif Yusufboyevga nisbatan berilgan 10 yillik jazo o'zgarishsiz qoldirildi. Uning bundan keyingi taqdiri haqida esa aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Lagerda halok bo'lgani yoki boshqa bir hududga ko'chirilgan haqida hujjatlar hozircha topilmagan...

Qahramonimiz qismati o'sha davrda minglab insonlar boshidan kechirgan fojialarning birgina manzarasi. Sharif Yusufboyev kabi insonlar hayotini o'rganish nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki o'tmish saboqlarini anglash, keksalar qadriini bilish va jamiyat xotirasida ularning nomini munosib saqlash yo'lida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Shog'afur Shomansurov – Namangan uyezdi Chust shahrida tug'ilgan. Otasidan er ta'lim qolgach, o'z kunini o'zi ko'rishga majbur bo'ladi va 1911–1912-yillarda zavodda ishchi, 1912–1916-yillarda gazeta tarqatuvchi bo'lib xizmat qiladi. 1916-yili mardikorlikka olingan. 1917-yilda mardikorlikdan qaytib, 1918-yili bolsheviklar partiyasi safiga kirgan. 1919–1920-yillarda Chust rayon militsiyasi boshlig'i, 1928–1929-yillarda Andijon okrugi ijroiya qo'mitasi raisi lavozimida ishlagan. "Milliy istiqlol" tashkilotining a'zosi bo'lgani hamda aksilinqilobiy harakati uchun 1936-yili hibsga olingan. 1936-yili sud kollegiyasi hukmiga ko'ra 3 yil muddatga qamoq jazosiga tortilgan.

Negmatulla Rahmatullayev – Zagza qishlog'ida tug'ilgan. Hibsga olingunga qadar kommunal tayyorlov bo'limi xodimi. "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi bo'lgan. Sovet hokimiyatini ag'darishga qaratilgan aksilinqilobiy ishlar olib borganlikda, mustaqil burjua davlatini yaratish, doimiy ravishda aksilinqilobiy mag'lubiyatchilik targ'iboti olib borganlikda ayblanib, O'zSSR JK 66-moddasi, 1-bandi bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 13-sentyabrda hisoblangan.

Mo'min Xo'jayev – 1898-yili Xo'jand shahrida tug'ilgan. Sobiq quloq, savdogar. VKP(b)ning sobiq a'zosi. "Milliy ittihad", "Milliy istiqlol" va "Ittihodi Sharq" tashkilotlari a'zosi bo'lgan. Hibsga olingan paytda O'zbeksavdo direktori bo'lgan. 1918-yili "Milliy ittihad" tashkiloti topshirig'i bilan taniqli sovet xodimlari ustidan terrorchilik aktini amalga oshirganlikda va bosmachilikka rahbarlik qilganlikda, aksilinqilobiy ishlar olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Unga tegishli mol-mulka musodara etilgan.

Ibrohim Sarkar Obidinov – 1881-yili tug'ilgan. Yomoniy qishlog'idan. Quloqqa tortilgan. Dastavval "Sho'royi Islom" tashkiloti tarkibida bo'lgan. Hibsga olingunga qadar aniq mashg'uloti bo'lmagan. Doimiy ravishda kolxozchilar orasida aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, yaqin orada urush bo'lishi haqida va SSSRdagi ocharchilik to'g'risida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan. U 2814-sonli ish bo'yicha otuvga hukm qilingan.

Mulla Aranboy Sa'diyev – 1890-yili Abdujuvoboshi qishlog'ida tug'ilgan. Sobiq savdogar. "Sho'royi Islom" tashkiloti a'zosi bo'lgan. Hibsga olingunga qadar aniq mashg'uloti bo'lmagan. Aholi orasida aksilinqilobiy, mag'lubiyatchilik va kolxozga qarshi targ'ibot olib borganlikda, "chet el davlatlari bilan urush sabab sovet hokimiyati yaqinda qulaydi", degan mish-mish tarqatganlikda, xalq dushmanlari to'g'risida rahmdillik kayfiyatini bildirganlikda ayblanib, 2814-sonli ish bo'yicha otuvga buyurilgan.

Azizbek MAHKAMOV, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA, muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).

MOZIYDAN SADO

TAZYIQQA UCHRAGAN CHASHMA

Nurota o'zining Chashmasi bilan aziz va tabarrukdir. Shu obi hayot sababidan Nur (Nurota) bunyod bo'lgan. Muhammad Ja'far Narshaxiy "Tarixi Buxoro" asarida: "Hali Buxoro shahri vujudga kelmagan, lekin qishloqlardan ba'zilar paydo bo'lgan edi. Nur, Xarqonrud, Vardona, Tarovcha, Safna va Isvonalar o'sha qishloqlar jumlasidandir", deb yozadi.

Buxoro shakllanib, shahar martabasiga yetganidan keyin ham Nurga bo'lgan ehtirom davom etadi. Narshaxiy o'zining tarixiy asarida yana shunday yozadi: "Nur katta joy... Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili u yerga Chashma ziyorati uchun boradilar. Buxoro aholisi Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan kishining fazilatiga ega bo'ladi, deya mubolag'a qiladi. Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar".

Chashma bo'yidagi ziyoratchilar va mahalliy xalq ehtiyoji uchun mo'ljallangan dastlabki jome masjid IX asrlarda barpo etilgan bo'lib, manbalarda aytilishicha, eskirgan va faqatgina poydevori saqlanib qolgan bino Buxoro xoni Abdulloxon davrida (XVI asr) qayta tiklangan. Obidaning hozirgi asosi XIX asrga to'g'ri keladi. U 1907–1912-yillarda nurotalik mashhur ma'rifatparvar, qorako'chi tijoratchi Eshoni Sudur–Tursunxo'ja Eshonxo'ja (1872–1936) tashabbusi va mablag'i evaziga uchinchi bor qayta qurilgan. Masjid to'rtburchak shaklda, yigirma besh gumbazli, sathi 20x30 hajmda.



Bino yog'och va mix ishlatilmasdan, qir ustunlik qilib tiklangan. Shu sababli, "Chil ustun" deb atalib, shu nom bilan mashhur bo'lgan.

Aholining chashmaga bo'lgan e'tiqodi o'z vaqtida sovetlarni tashvishga solgan. Shu bois, Chashma ziyorati va masjidga taqiq qo'yilgan. Bu cheklovdan asosiy maqsad, odam to'planishining oldini olish bo'lgani Eshoni Sudurning "Jinoyat ishi"da aks etgan. 1919-yilda amirlikda qorovul bo'lgan 63 yoshli Xudoyberdi Jabborov Sudur ishi yuzasidan tergov qilinganida bergan ko'rsatmalarida bu haqiqat aks

etgan: "Eshoni Sudur amirlik va beklikda katta hurmatga ega edi. Qizillarga qarshi kurashni 1917-yilda boshlagan. 1000–1200 atrofida odam yig'ib, Qo'shrabot chegarasiga qizil askarlarga qarshi boshlab bordi. Ularning safida men ham bor edim. Ammo jang bo'lmadi. Chunki u yerda qizillar yo'q ekan. Kurashish maqsadida 1922-yili yana qo'shin to'pladi va Mullo Abduqahhor bilan Karmana va G'ijduvonda qizil armiyaga qarshi kurashdi".

Haqiqatda bosqinchilarga qarshi kurash davom etgan. Chashma sahnidagi masjid – Chil ustun milliy mustaqillikka qat'iy

bel bog'lagan Eshoni Sudur – Tursunxo'ja Eshonxo'janing yig'ilish o'tkazadigan qarorgohiga aylangan. 1922-yilning juma kunlaridan birida Chil ustunda Amir Olimxon tomonidan o'ziga yo'llangan maktubni jamoatga o'qib berib, Mullo Abduqahhor Buxoro amirligining bosh lashkarboshisi etib tayinlanganini rasman e'lon qiladi va ommani qo'shini safiga chorlaydi. Chorlovga binoan mahalliy qo'rboshilar Sirojxo'ja, Maqsum Xo'jayev, Sobir polvon, Olimxo'ja, Navro'z Boqiyev boshliq guruhlar uning lashkariga qo'shiladi.

Bu harakatlardan cho'chigan sovetlar Eshoni Sudurni 1928-yil 4-avgust kuni Nurotadagi Chillumozor ko'chasidagi uyida hibsga olib, barcha mol-mulkini musodara qiladi. Eshonga O'zSSR JKning 58-, 78- va 242-moddalariga ko'ra, "Qizil armiyaga qarshi qurolli hujumlar tashkilotchisi va ishtirokchisi, isyonchi, sudxo'r" ayblovlar bilan jinoyat ishi ochadi. Shundan so'ng Chashma ham "xurofot o'chog'i" sifatida taqiqqa uchraydi, yoqosti qilinib, bu yerga turli korxonalar joylashtiriladi...

Haq hamisha qaror topgan. Vatanimiz Mustaqillikka, xalqimiz milliy va ma'naviy ozodlikka erishishi bilan Nurota Chashmasi ham qatag'on taqiqidan ozod bo'lib, yana qayta tabarruk ziyoratgohga aylandi. Hozirda bu muqaddas maskan nomiga mos holda tamoman yangicha – nurli qiyofa kasb etgan.

Suyundik MUSTAFO, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

